

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

TARIX FAKULTETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi
IV kurs bitiruvchisi

XOSHIMOV IZATULLO

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: A.Temur va temuriylar davrida madaniy hayot
(Ilm - fan misolida)

Ilmiy rahbar:

BOZOROV Q.
katta oqituvchi

ANDIJON – 2018

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. AMIR TEMURNING SIYOSIY MAYDONGA CHIQISHI VA MARKAZLASHGAN DAVLATNING TASHKIL TOPISHI	
I.1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.....	8
I.2. Amir Temur davlati boshqaruv tamoyillari	14
I.3. Amir Temurning jahongirlik yurishlari.....	17
II. BOB. A.TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM- FAN VA MADANIYAT	
II.1. Mirzo Ulug‘bekning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.....	27
II.2.A.Temur va temuriylar davrida ilm -fan taraqqiyoti.....	34
II.3. Amir Temur va temuriylar davrida badiiy adabiyot ravnaqi.....	43
XULOSA.....	54
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan tariximizning ko‘pdan-ko‘p sahifalari, eng avvalo, Amir Temur davri tarixi yangitdan kashf etildi. YUrtboshimiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek, *«Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda»*.¹

Bobokalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan buyuk davlat arbobi edi. XIV asrning ikkinchi yarmi-XV asr boshida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mustaqil davlatga hamda temuriylar uyg‘onish davriga asos solgan, o‘rta asr madaniyati, ilm-fani, san’ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan, uning benazir homiysi bo‘lib tanilgan bu ulug‘ zotning muborak nomi har turli mafkuraviy ta’sirotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay, asrlar osha avlodlarning faxri va iftixori bo‘lib keldi.

1996 yil mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1996 yilning aprelida Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan *«Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning ravnaqi» haftaligi bo‘lib o‘tdi*.

Haftalik doirasida O‘zbekistonning tasviriy va xalq amaliy san’ati ko‘rgazmasi namoyish qilindi, xalqaro ilmiy konferensiya ish ko‘rdi. SHuningdek, 1997 yilning 23 aprelida Germaniyaning Bonn shahrida «Amir Temur va uning tarixdagi roli» mavzuida nemis va o‘zbek olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi.²

«Biz o‘zbeklarni ulug‘, bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham shunday,-deb ta’kidlaydi I.Karimov. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida. Amir Temur bobomizning to‘ylarini o‘tkazishdan maqsad nima edi? Komil bu insonning eng avvalo buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor

¹ I.Karimov. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997, -Б. 140

² Жўраев Т. Амир Темур даҳосининг тантанаси. Қаранг: «Олти аср адолати», Мажмуа. Т., «Ўзбекистон», 1998, -Б.94-95

*shaxs bo'lganini, fan, madaniyatga xomiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi...*¹

Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo'yildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi. Amir Temur shaxsi butun ma'rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi. Ayniqsa sohibqiron Amir Temur olib borgan tashqi siyosati va Evropa davlatlari bilan o'rnatgan diplomatik munosabatlari adolat mezonlari bilan olib borilganligi bois ham bugun jahon hamjamiyati bunga qoyil qolmoqda.

Vatanimiz tarixida Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan birlikda uning ma'naviy-madaniy hayotning ham gurkirab rivojlanishiga, ilm-urfon, adabiyot va san'at sohalarining o'sishiga, bu soha olimlarining iste'dodi va ijodining kamol topishiga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bu o'rinda Amir Temur, SHohruh Mirzo, Ulug'bek, Boysunqur Mirzo, Sulton Husayn, Bobur Mirzo singari Ulug' hukmdor siymolarning shaxsiy ibrati tahsinga loyiqdir.

SHu bois ham Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayot tarixini tadqiq qilish tarixshunosligimizdagi dolzarb masalalardan biridir. Mana shundan kelib chiqib mazkur bitiruv malakaviy ishimizda bu masalani yoritishni asosiy maqsad qilib oldik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, A.Temur va temuriylar davrida madaniy hayot tarixini milliy istiqloq mafkurasi, milliy g'oya ruhida tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish tadqiqot maqsadini tashkil qiladi. SHu maqsaddan kelib chiqib tadqiqotga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Amir Temur shaxsi va nasabiga doir ma'lumotlarni berish;
- markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi jarayonini yoritish;
- Amir Temurning jahongirlik yurishlarida adolat ustunligiga amal qilganini ko'rsatib o'tish;

¹ И.Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, «Шарк», 1998, -Б.15

- Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy hayot rivojini ochib berish;
- Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti va unga ta'sir o'tkazgan omillarni yoritib berish;
- Temuriylar davri badiiy adabiyot taraqqiyotini va bu davrda ijod qilgan olimi fuzalolar ilmiy merosini o'rganish;

Mavzuning o'rganilish darajasi. Istiqlol sharofati bilan Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayot tarixi to'g'risida shu paytga qadar bizga noma'lum bo'lgan tarixiy-ilmiy hamda badiiy asarlar, monografiyalar, risolalarni endilikda o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Turli davrlarda yozilgan bu tadqiqotlarni biz bir xil tarzda qabul qila olmaymiz. SHu bois ham ularni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganamiz.

Birinchi guruhga o'z davri rasmiy tarixnavislik an'alariga rioya qilib yozilgan solnomalar mualliflari Nizomiddin SHomiy («Zafarnoma»), G'iyosiddin Ali («Temurning Hindistonga yurishi kundaligi»), Hofiz-Abu («Zubdat ut-tavorix»-ya'ni «Tarixlar sarasi»), Abdurazzoq Samarqandiy («Matla us-Sa'dayn»), Mirxond («Ravzatus safo»), Xondamir («Xabib as-siyar», Muinidzin Notanziy («Muntaxab ut-tavorix»-ya'ni «Tarixlar saylanmasi») singari mahalliy tarixnavislar kiradi. Bu tarixchilar sohibqiron Amir Temur davrida yashab ijod etgan bo'lib, sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, o'zlari ham ishtirok etganlar.

Ikkinchi guruhga mansub mualliflar, bu-turli mamlakatlar olimlari, adiblari bo'lib, ular Temur va uning avlodlari davrida yashab ijod qilganlar. Ibn Arabshoh¹, Rui Gonsalesde Klavixo² va XVI asrdan to bugungi kunlarga qadar ijod qilib kelayotgan ijodkorlar bor. Forest (1543), Perondino (1553), Meksiya (1564)ning «Buyuk Temur kitobi», Silvestr De Sasi, SHarida, Elayes-Fermor, Mignapelli, Feridunbey va boshqalarning sohibqironga atab yozgan asarlari. Keyingi yillarda farang olimlari Lyusen Keren³, Jan Pol Ru, V.Furniyo (Samarqand-1400-1500-

¹ Ibn Arabshoh. «Amir Temur tarixi», (Temur tarixida takdir ажойиботлари) Т. Меҳнат, 1991-1992.

² Руи Гонсалес де Клавихо «Самарқандга Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406)» Т.Адолат. 1998.

³ Л.Керен. «Темурлан ёхуд Темур ҳокон салтанати Париж 1978.ўша муаллиф. Тамерлан даврида Самарқанд йўли .1990.;

Tamerlan poytaxti: imperiya va uygʻonish yuragi. 1995.) F.Bressand («Moʻjizakor Samarqand»), amerikalik sharqshunoslar Betritsa Farbes Mane¹, Jon Vuds va nemis olimi Genri Ryomerning asarlarida ham Amir Temur davlati va uning tashqi siyosatiga doir maʼlumotlar berilgan.

Uchinchi guruhga mansub mualliflar, bu Rusiya mustamlakachiligi davrida ijod qilgan tarixchilardir. XIX asr birinchi yarmida Peterburgda xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M.S.Harmua², Moskva universiteti professori T.N.Granovskiy(1813-1855) ³ S.M.Solovyov (1820-1879) ⁴ Grekov B.D., YAkubovskiy A.YU. «Zolotaya Orda i eyo padenie». M. 1976. s.374), V.V.Bartold⁵, A.YU.YAkubovskiy⁶, I.P.Petrushevskiy⁷, asarlarida Temurning istilochilik yurishlarining shafqatsizligini, shu bilan bir qatorda uning sarkarda va harbiy boshliq sifatidagi talantini, jang vaqtida qoʻshinlarni boshqarish sanʼatining ustasi ekanligini tan oladilar. Temur istilochilik yurishlarining asosida «maʼlum iqtisodiy reja» bor, yaʼni Evropa-Osiyo savdosidagi karvon yoʻllari ustidan toʻliq nazorat oʻrnatishga intilish yotar edi», -degan fikrlari ahamiyatga molikdir.

Umuman Amir Temur va uning saltanati tarixiga qiziqish dunyo hamjamiyatini oʻziga tortib kelgan. Dunyodagi temurshunos olimlarning Amir Temur shaxsiga boʻlgan yuksak eʼtibori Evropa tillarida 500 dan ziyod, SHarq tillarida 900 ga yaqin jiddiy tadqiqotlarda namoyon boʻldi.⁸ Ulardan 300 dan ortiqrogʻiga bagʻishlangan dastlabki ilmiy koʻrsatkich yaratildi.⁹

¹ Mans Beatrice Fordes. The rise and rule of Tamerlan. - Gambridge, 1989, 228 p. 1. Introduction.

² Charmou M. Expedition de Timouri lenk du Tamerlan contere Togtamiche Khan de loulous de Djoutchy, en 793 de l'herige ou 1391 de notre ere //Memoires de l'Academie imperi ale des science de Saint Petersburg. Sixieme serie, sciences politigues, Histoire et philologie. tome 3. St.-Peterbourg, 1836. S. 89-505.

³ Сочинения Т.Н.Грановского. Часть I. М., 1866, с.337. 341-342.

⁴ Соловьёв С.М. История России. Кн. I-ая, Том I-V, изд. 2-е, СПб., 1909, с.102.

⁵ Бартольд В.В. История Туркестана. Бартольд В.В. Сочинения, Том II, часть I, М., 1963, с. 153-154.

⁶ Якубовский А.Ю. Тимур. Опёт краткой политической характеристики //Вопросы истории, М., 1946, №8-9, с.42-74, Якубовский А.Ю.Государство Тимура. Мавераннахр и Хорасан при Тимуридах (Xк в). В кн.:История Узбекской ССР, Том I, Ташкент, 1967,

⁷ Петрушевский И.П. Иран под властью Тимура и Тимуридов. В кн.: История Ирана. М., 1977, с.162.

⁸ И.Каримов. Amir Temur – faxrimiz, guururimiz. Qarang: «Amir Temur haqida sʻuz», -B.50

⁹ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Amir Temur в зеркале мировой истории. Т., 1999.

Amir Temur va temuriylar tarafidan yozilgan asl va noyob asarlar¹⁰, oʻrta asr yozma manbalari¹¹ Sohibqiron davrini, ayniqsa tashqi siyosatini idrok etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Istiqlol yillarida buyuk Amir Temur va uning saltanati tarixini oʻrganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Amir Temur merosini oʻrganishga imkon beruvchi talaygina adabiyotlar² mavjud.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, oʻrganilgan mavzu tamoman yangicha metodologiya asosida tadqiq qilindi. Tadqiqotda milliy gʻoya va milliy istiqloq mafkurasi ruhi va talablari asosida Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayot tarixi birinchi bor alohida mavzu sifatida oʻrganildi va nazariy xulosalar chiqarildi. Ishda mustaqillik yillarida nashr qilingan kitoblar va ilmiy maqolalar asosida Temur va temuriylar davrida ilm – fan gullab yashnagani koʻplab manbalar asosida yoritildi.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati, ilova va taqdimot qismlaridan iborat.

¹⁰ Temur tuzuklari. T., Fafur Gulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 1991; Amir Temur Kўрагон. Зафар йўли-Таржимаи ҳол. Т., нур, 1992; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т., «Чўлпон», 1994; Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. Т., «Юлдузча», 1989, 1960; Гулбаданбегим. «Хумоюннома». Т., «Маънавият», 1998.

¹¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т., «Ўзбекистон», 1996; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т., «Шарк», 1997; Ҳайдар Мирзо Мухаммад. Тарих-и Рашиди. Т., «Фан», 1996; Ибн Арабшоҳ. Amir Temur тарихи-Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 1-2 китоблар. Т., 1992; Ҳофизи Абру. Зайли китоби Зафарномаи Шомий. Анкара, 1934; Абдуразоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. Т., 1969; Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. Т., 1941 ва б

² Аҳмедов Б. Amir Temur. Тарихий роман. Т., 1995; Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашри, 1996; 1997; Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Соҳибқирон Amir Temur ва унинг салтанати. «Андижон», 1995; Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. А.Қодирий ном. Халқ мероси нашр., 1996; Хильда Ҳукхэм. Етти иқлим султони. Хужжатли тарихий қисса. Т., «Адолат», 1999; Ака И. Буюк Темур давлати. Т., «Чўлпон», 1996; Руи Гонсалес де Клавих. Самарқандаги амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). «Санъат» № 9-10. 1989, № 1-10. 1990; Мухаммаджонов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1997; Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. Т., «Шарк», 1997;

I BOB. Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi va markazlashgan davlatning tashkil topishi.

I.1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.

XIV asrning 50-60 yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, siyosiy vaziyat keskinlashdi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmronlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urishlarga aylanadi. Bu davrda yagona uyushgan davlatning yo'qligi uning siyosiy jihatdan maydalanib ketganligi natijasida hokimlar o'rtasida doimo nizolar va g'alayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib mamlakat aholisini ayniqsa dehqonlar xo'jaligi xonavayron qilgan edi.

Ichki o'zaro urushlar avj olib ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda va davlat arbobi Amir Temur kirib keladi. Mojar olimi Herman Vamberi o'zining "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" risolasida "Temurning otasi, Tarag'ay barlos urug'ining boshlig'i edi. SHu munosabat bilan Amir Qozog'ondan Kesh va Naxshab viloyatlarini oldi, deb yozadi¹. 1334 yilda Amir Temurning onalari Tegin Begim Mohni Sohibqironning otalari Amir Muhammad Tarag'ay o'z nikohiga olgan. SHu nikohdan Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida SHahrisabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan. Amir Temurning onalari Tegin Begim Moh Buxoroning taniqli olimi Sadr ash-shari'a Ubaydulloh ibn Toj ash-shari'a Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy al-Buxoriyning qizi bo'lganlar.

Amir Temur hokimiyat tepasiga 1370 yilda Amir Xusaynni enggandan keyin chiqdi. Amir Temur bilan Amir Xusayn o'rtasidagi siyosiy hokimiyat uchun kurash Amir Temur uchun juda og'ir, mashaqqatli kechdi. Buning bir qator sabablari bor.

¹ Қаранг Ҳерман Вамбери Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи Т. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1990, -Б.30

Birinchiidan, Amir Temur avvalo hali etarli kuch-qudratga ega bo'lmagan holda mo'g'ullarga qarshi kurash olib bordi.

Ikkinchiidan, Movarounnahr mo'g'ullarning siyosiy tizimi bo'yicha ko'rinishdan ulkan ulus ko'rinsa-da, amalda mayda beklilarga bo'lib tashlangandi. Bu siyosiy boshqaruv sistemasi mo'g'ullarga qo'l kelardi.

Uchinchiidan, bu porokanda mamlakatni birlashtirdi, uni umumiy dushmanga qarshi kurashga barcha kuchlarni o'zining ketidan ergashtirdi.

To'rtinchiidan, Amir Temur uchun hokimiyatni qo'lga kiritishning murakkab tomoni yana shunda bo'lganki, Amir Xusaynning singlisi Uljoy Turkon og'o Amir Temurga suyuqli xotin bo'lgan.

Beshinchiidan, Amir Temur xotini hurmati yuzasidan hokimiyatni sheriklikda boshqarishga rozi bo'lsa-da, Amir Xusayn unga rozi emas edi. Ikki o'rtada bir necha bor katta-kichik janglar kelib chiqdi, bu Amir Xusaynning mag'lubiyati bilan yakunlandi.

Amir Xusayn mag'lub etilgandan so'ng, Movarounnahrda Amir Temur uchun kuchli raqib qolmagan edi. O'sha yili Balxda qo'shin boshliqlari quriltovida qadimgi odatga ko'ra Amir Temur oq kigizga o'tkazilib, yuqori ko'tariladi. Amir Temurning piri Sayid Baraka duoi fотиha qilgach, u Movarounnahr hukmdori - ulug' amiri deb e'lon qilinadi. SHunday qilib, Amir Temur davlati tashkil topadi, lekin siyosiy jihatdan parokanda, mayda, o'zboshimcha beklarni tugatib, o'rnida qudratli markazlashgan davlat barpo qilish kerak edi.

Avvalo, davlatning yuragi hisoblangan markaz shahar qilib Samarqand tanlandi. Samarqandning qal'a devorlari mustahkamlanib, muhtasham saroy va qasrlar bunyod qilina boshlandi. Ular mo'g'ullar istilosidan keyingi 150 yil davomida vayron etilgan qadimgi So'g'd poytaxti o'rnida boshlangan dastlabki yirik inshootlar edi. SHuningdek, uzluksiz talonchiliklar, o'zaro nizolar oqibatida holdan toygan, boshboshdoqlik avjiga mingan mamlakatda qat'iy qonunlar va tartib intizom joriy qilindi. Bu albatta, Movarounnahrda va uning atrofida Amir Temurning obro'-e'tiborining ortishiga olib keldi.

Markazlashgan davlat tuzish maqsadini amalga oshirishda Amir Temur ruxoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar va xunarmand tabaqalariga suyandi.

Amir Temurning buyuk, betakror va yorqin shaxsi, qudratli, irodasi va keng qamrovli harakatlari dovrug'i o'z ta'sirini yanada kuchaytirib, bir qator mamlakatlar va davlatlardagi million-million halq ommasining ongi va shuuriga o'mashib qoldi. Buyuk davlat arbobi, tashkilotchi va bunyodkor, siyosatchi va diplomat sifatida Amir Temurning hayoti va faoliyati biz yuqorida qayd etganimizdek, dunyo olimlarning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu borada rus va sho'rolar davri temirshunosligida Amir Temur shaxsi va uning tarixdagi o'rniga ziddiyatli bir yoqlama yondashuvlar namoyon bo'ldi. Xorijiy ilmiy adabiyotga kelganda, Evropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi bundan 400 yil avval boshlangan edi. 1996 yil boshlarida Parijda chet el tadqiqotchilarining Amir Temur va Temuriylar haqidagi tadqiqotlar bibliografiyasi e'lon qilingan ro'yxatga 450 dan ortiq asar kiritilgan edi. O'shandan buyon o'tgan vaqt mobaynida yana 50 dan ziyod tadqiqot mavjudligi aniqlandi.

Amir Temur va Temuriylar to'g'risida e'lon qilingan ilmiy ishlarni o'z xususiyati va tarixiy mazmuniga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- arab, fors, turkiy tillardagi, Kavkazorti xalqlari tillaridagi, Evropa tillaridagi yozma manbalar;
- Amir Temurning bir qator Evropa davlatlari hukmdorlariga (Angliya, Ispaniya, Fransiya) yo'llagan maktublari va ularga kelgan javobnomalari;
- chop etilgan numizmatik manbalar;
- nashr qilingan epigrafik manbalar;
- umumlashma tarzdagi ilmiy tadqiqotlar;
- ayrim yirik muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar;
- alohida masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar;
- ilmiy - ommabop nashrlar.

Fransuz olimlarning tadqiqotlari keyingi vaqtlarda o'sha davr to'g'risidagi fanda katta va muhim o'rin tutib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Lus'en Keren va Frederik Bressandlar faoliyati tufayli Parijda yagona maxsus «Temuriylar» jurnali nashr etilmoqda. Hozirda uning 20 dan ortiq soni bosmadan chiqdi.

Amir Temur tarixnavisligi bosib o'tgan yo'lga fikran nazar tashlab, shuni qayd qilish mumkinki, jahon tarix adabiyotida zamonlar o'tishi bilan Amir Temur shaxsini bir yoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko'nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o'tish tadriji sodir bo'lmoqda. Zero, Amir Temur yuksak iqtidorli, tabiatan donishmand, buyuk davlat arbobi, bashoratli va irodali siyosatchi, Markaziy Osiyoda markazlashgan kuchli davlatning tashkilotchisi, hukmdori va bunyodkori sifatlarini o'z qiyofasida mujassamlashtirgan shaxs sifatida jahon tarixidan munosib o'rin olgan.

Amir Temur kabi ulug' zot shaxsi bilan bog'liq afsona, rivoyat va hikoyatlarda uning «xalq nazaridagi suyukli qahramon va adolatli podshoh» bo'lganligi, voqealar tavsifida haqiqat va afsonaviylikning chambarchas bog'lanib ketishi, xalqimizning avvalgi azim qurilishlarini Amir Temur nomi bilan bog'lab kelayotganligi xalqimizning Sohibqiron haqidagi xotirasi boqiy ekanidan dalolat beradi.

Sohibqiron Amir Temur tarix sahnasida paydo bo'lgan davrda, aytish mumkinki, *jahon davlatchiligining yangi davri boshlandi*. U o'z imperiyasi tarkibidagi 27 davlatda nihoyatda aniq va hayotiy bo'lgan *qonunchilikni* joriy etdiki, bu ana shu ulkan hududda xos ma'noda huquqiy-demokratik davlat tamoyillariga aynan mos keladi. Ulug' bobomiz *davlat va davlat boshlig'i, fuqaro va rahbar o'rtasidagi munosabatlar* xususida fikr yuritar ekan, *boshliqsiz mamlakat joni sug'urib olingan tanaga o'xshaydi*¹, degan edi. Bu sohibqironning davlat va qonunchilikning mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rniga qanchalik e'tibor bilan qaraganidan dalolat beradi.

¹ Қаранг: Темур тузуклари... -Б. 18

Bizning davlatchilik an'analarimiz, uning turli davrlardagi holatlari, dunyo taraqqiyotida tutgan o'rni hali lozim darajada o'rganilmagan. Bu muhim ish tarixchilarimiz, huquqshunoslarimiz, faylasuflar va boshqa mutaxassislarimiz oldida turgan eng zarur vazifalardan biridir.

Turkiston xalqlari bir necha ming yilliklar mobaynida shakllangan olamshumul siyosiy tajribalari, ma'naviy barkamol davlatchilik an'alari bilan jahon davlatchiligi va siyosati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, *Sohibqiron Amir Temurning turkiy ulusni yakqalam qilib, markazlashgan davlat va millat qudratini yuksaltirish uchun buyuk temuriylar saltanatiga asos solishi, Mirzo Ulug'bekning fan va madaniyat ravnaqi, Husayn Boyqaroning adabiyot va san'at, ilm va hunar ahliga rahnamoligi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbarshoh, SHoh Jahonlarning turli din va mazhabdagi xalqlarni birlashtirib, eng insonparvar davlatni vujudga keltirish yo'lidagi tajribalari va yutuqlari jahon siyosatdonlari tomonidan yuqori baholangan.*

Amir Temur SHarq davlatchiligi tarixida *yangi dunyoqarashga* asos soldi, uni amalda tatbiq etdi. U ilgari davrlardan farqli holda jamiyat barcha tabaqalarining haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirdi. Har bir toifaning haq-huquqlari, burch va majburiyatlari o'ziga xos qonun bilan kafotlab qo'yildi.

Sohibqironning ulkan xizmatlaridan yana biri uning davlat boshqaruvini tashkil qilishi bilan bog'liq. *Amir Temur boshqaruv tizimining buyuk islohotchisidir.*

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, hokimiyat bo'linishiga asoslangan mazkur tizimni joriy etishda Sohibqiron ko'r-ko'rona emas, balki o'zi yashab turgan voqelikni nazarda tutgan holda ish yuritdi. Muarrir Azamat Ziyoning fikricha¹, bu tizimda saltanat darajasiga ko'tarilgan davlatning jo'g'rofiy hududlari doirasida yashovchi *xalqlarning turmush tarzi, an'alari, ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari* ham

¹ Azamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., 2000, -Б. 314.

inobatga olingan. Davlat boshqaruvi tizimiga Amir Temur olib kirgan yangilikning mohiyati ham aslida shu bilan belgilanadi.

Amir Temur eng oliy davlat idorasi maqomida *qurultoy*ni belgilagan edi. Bugungi tushunchadagi kongress, assambleya, majlis, s'ezd kabilarga to'g'ri keladigan ushbu siyosiy institut boshqaruv mahkamasi va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan eng asosiy masalalarni hal etib, unda saltanatdagi barcha yirik siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy soha namoyandalari ishtirok etganlar.

Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijroiya tizim-vazirliklarning o'рни muhim bo'lgan. Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, ulardan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun qat'iy intizomga asoslangan, talabchan ijroiya mexanizmi zarur edi. Sohibqiron ana shunday tizimni yarata oldi.

Amir Temur saltanatining ijroiya tizimidagi *sakkiz vazirlik* va yana bir necha muassasalar moliya, soliqlar, daromad va xarajatlar, mulkchilik, etishtiriladigan hosil chorva, yaylovlar ahvoli, obodonchilik, xabar va pochta, harbiy va adliya sohalarini boshqargan.

Bundan olti asr burun Movarounnahrda *sud tizimida o'ziga xos tartib va qoidalar mavjud edi.* CHunonchi, fuqarolik ishlari bilan ijroiya tizimida faoliyat ko'rsatgan *adliya vazirligi* shug'ullangan bo'lsa, jamiyat hayotiga ma'naviy, tarbiyaviy ahamiyatiga doir muammolar bilan esa *askar qozisi*, harbiylar orasidagi huquqiy masalalar bilan esa askar qozisi, ya'ni bugungi til bilan aytganda harbiy tribunal shug'ullangan.

Amir Temurning jamiyat va davlat boshqaruvida hokimiyat bo'linishi haqida fikr yuritar ekanmiz, tadqiqotchilar uni XVIII asr mutafakkiri *Monteskening* hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov idoralariga bo'linishi haqidagi ta'limotiga mos kelishini ta'kidlaydilar.

«Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim». Sohibqironning birgina ana shu so'zi uning butun saltanatining *ezgulik va yuksak ma'naviyatga asoslangan g'oyasini, siyosiy va ijtimoiy*

mazmunini belgilaydi. Uning islom diniga munosabati xalq manfaatlariga mos keladigan, uning taqdirini belgilaydigan ulkan hodisadir.

Dunyo me'morchilik san'atining gultoji bo'lgan osori atiqalar-Go'ri Amir, Bibixonim, Zangi Ota, Xoja Ahmad YAssaviy maqbaralari Oq saroy va SHohi Zinda majmualari kabi ko'plab ziyoratgohlar hamda Amir Temurning shariat va tariqat peshvolariga nisbatan izzat-hurmati uning shaxsiyatining naqadar ulug'vorligini va daholik qudratini ko'rsatadi.

Sohibqiron «**Har erda va har vaqt islom dinini quvvatladim**»¹-deydi. Ma'lumki, shu davrda yassaviya, naqshbandiya, kubraviya kabi so'fiylik tariqatlari paydo bo'ldi va rivojlandi. U hukmronlik qilgan yillarda islom dini axloqiy kategoriyalari yanada yuqori darajaga ko'tarildi.

I.2.Amir Temur davlati boshqaruv tamoyillari

Amir Temur davlatining asoslari ham 1370 yildayoq qo'yilgan edi, keyinchalik uzoq yillar davomida ko'p sabablar bilan, xususan unga yoki bu xududlarning qo'shib olinishi bilan bog'liq ravishda doimiy ravishda takomillashib borildi va o'zgartirishlar kiritildi.

Temur davlati o'z davrida nisbatan markazlashgan davlat edi. Bu davlat, asoschisi Amir Temur ko'zda tutganday, mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar (sayyidlar va ruhoniylar, olimlar va fozil kishilar, ahli hunar, ziroatchilar, sipohiylar, savdo-sotiq ahli va boshqalar)ning maqsad va manfaatlarini himoya qilishi, maslahat va kengash ila qattiq qo'llik bilan boshqarilishi kerak edi.

Bu-davlat tuzishda amal qilish zarur bo'lgan birinchi shartdir.

Davlatni shakllantirishda amal qilish lozim bo'lgan ikkinchi shart-sharoit-bu saltanatning to'rt asosiy ustunini to'g'ri anglash va unga suyana bilish. Bu ustunlar quyidagilar ;

1. Islom va shariat aqidalari;

¹ Тему́р тузуқлари... -Б. 18

2. qadimdan amalda bo‘lgan odatlar-yo‘sin va tuzuklar; qonun ustunligi;
3. Xazina;
4. Raiyat, ya’ni mehnatkash xalq.

Qonunga asoslanish va musulmon huquqi tamaoyillari davlat boshqaruv asosida qo‘yilgan poydevor edi.

“Men o‘z davlatim binosini islom ahkomlariga muvofiq ravishda qurdim,”- degan edi Amir Temur,- uni to‘ra va tuzuk asosida boshqardim, o‘zimning kundalik faoliyatimda nimaiki qilgan bo‘lsam barchasini qonunga asoslangan holda amalga oshirdim”. Amir Temur o‘z davlatida qonunning kuchli va ta’sirchanligini ta’minlaydi. U ettita idoradan iborat yaxlit davlat apparatini yaratdi :

1. Bosh vazir devoni (mamlakat va xalq ishlari bo‘yicha vazirlik);
2. Harbiy vazirlik (qo‘shimcha taalluqli ishlar vazirligi);
3. Moliya ishlari vazirligi;
4. Saroy vazirligi;
5. Adliya vazirligi (Bosh qozi devoni);
6. Davlat xavfsizligi vazirligi (devoniy mushrif);
7. Tashqi aloqalar vazirligi (Devoniy rasoyil)

Markaziy ijroiya hokimiyatiga bu erda vazirliklar kengashi (arkoni davlat) boshchilik qilar, uning tarkibiga bosh vazir (devonbegi) boshchiligidagi etti vazir kirar edi. Ular aholining soni, savdo va madaniyatning rivojlanishi, davlatdagi nazorat ishlarining ahvoli haqida hisobotlar tuzish bilan shug‘ullanar edilar.

Hukmdorga ma’muriyatning ishi, viloyatlardagi ishlarning borishi, o‘lponlar, soliqlarning taqsimlanishi va ularning yig‘ish va boshqalar haqida axborot berar edilar.¹

Amir Temur mahalliy hokimiyatlarda ham imon-insofli, ishbilarmon odamlarni qo‘ydirdi, ulardan el-yurtni muhofoza qilish, uni soliq undiruvchilar

¹ Уложение Тимура. Ташкент, 1992, -С. 40-41.

zulmidan himoya qilish, yurtni obod qilish, viloyatdan o'tayotgan savdo karvonlarini qo'riqlashni qattiq talab qildi.

“Tuzuklar”da o'qiyamiz: “mahalliy hokimlardan katta-kichik shaharlar va qishloqlarda masjid, madrasa va xonaqohlar bunyod etish, faqiru miskinlar uchun langarxonalar¹ qurish, bemorlar uchun shifoxonalar qurish topshirilsin”. Hazrat sohibqironning mana bu uqdirishlari ham muhimdir; “Amr qildimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish lozim. Negaki, raiyatni xona-vayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi”.²

Amir Temur davlat tizimi ham, avval o'tgan davlatlar tizimi singari, ikki qismga; qonun chiqaruvchi va ijroiya tizimlariga bo'lingan.

Qonun chiqaruvchi tizim qurultoy atalib, u asosan yirik turk-mo'g'ul qabilalarining yo'l boshchilari ishtirokida o'tgan va oliy hukmdor istagan paytda chaqirilgan. Qurultoy urush va sulh, oliy hukmdorning saylanishi kabi masalalarni muhokama qilgan va qonunlashtirgan.

Ijroiya tizimi devonlar va boshqa oliy davlat idoralaridan iborat bo'lgan. Davlatning ijroiya tizimi (devonlar) qurultoy qabul qilgan qarorlarni, podshoh farmonlarini va davlatning kudalik yumushlarini hayotga tatbiq etgan.

Amir Temur davlat boshqaruvining eng muhim tamoyili deb qonun ustuvorligini ta'minlagan edi.

Ma'lumki, qadim-qadim zamonlardan beri o'zbek xalqining ham, oila, mol-mulk, meros, davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi, jinoyat va jazo masalalariga tegishli qonun-qoidalarini bo'lgan. SHu masalalar bo'yicha hukm yoki ajrim chiqaruvchi idoralari bo'lgan. Masalan, qozilar (shariat qozisi, ahdos qozisi, qozi askar) o'z faoliyatida faqat islom va

¹ Лангархона-йўловчилар кўниб ўтадиган ер; miskin va etim-esirларга таом бериладиган жой; ғарибхона.

² «Темур тузуклари» Т., «Меҳнат» 1992 йил -Б. 21

shariat ko'rsatmalari, yoso-yusun va tuzuklargagina tayanib qolmay, balki ulug' faqihlar yozgan qo'llanmalar (masoillar) va fatvolarga ham tayanib ish yuritganlar.

Jinoyatga tortiluvchining aybi faqat to'rt nafar guvoh oldida isbot qilingandan keyingina uning ustidan hukm chiqarilgan.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Amir Temur davlatida qonun barchaga-vazirga ham, amirga ham, hokim uchun ham, shaohzoda uchun ham barobar bo'lgan. SHarofuddin Ali YAzdiyning "Zafarnoma"sidan quyidagilarni keltirish o'rinlidir:

G'arbiy Eron va Ozarbayjon hokimi Mironshoh mirzo maishat va kayfu safoga mukkasidan ketib, davlat ishlariga e'tibor atrofdagilarning ba'zilari esa, oliy jazoga mahkum etilganlar. Fors hokimi Airmuhammad sulton etti yillik urush (1399-1404) paytida sustkashlikka yo'l qo'ygani uchun u ham egallab turgan mansabidan olib tashlangan.

Umuman mamlakatimiz hududidagi qadimda o'tgan davlatlar tarixi, shular qatori Amir Temur davlati tarixini yaxshi o'rganish va Amir Temurning davlat va jamiyat boshqaruvining asosiy tamoyillarini o'rganish, demokratik jamiyat qurilayotgan O'zbekistonda davlat boshqaruvchi tamoyillarida undan unumli foydalanish zarurdir.

I.3. Amir Temurning jahongirlik yurishlari.

Sohibqironning betakror harbiy iste'dodi va qobiliyati zabardast harbiy islohotchi hamda atoqli sarkarda sifatida yaqqol ko'zga tashlandi. U eng qudratli va intizomli armiyani barpo etishga, harbiy qismlarini yurish va jang vaqtida oqilona boshqarishga, paydo bo'lgan har qanday g'ov va to'siqlarni tadbirkorlik bilan engishga, qo'shindagi jangovar ruh, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini doimo yuksaltirib borishga muvaffaq bo'lgan.

G'arb tarixi Temurbekni jahonning eng buyuk sarkadarlaridan biri sifatida, haqli ravishda, tan oladi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ldi.¹

Amir Temur barpo etgan armiyaning tuzilishi CHingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bo'lsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

- Sohibqiron armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi;
- qo'shinga oliy bosh qo'mondan ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan;¹
- qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham bo'lgan. Ma'lumki, CHingizxon qo'shini piyoda askarlarga ega bo'lmagan;²
- Amir Temur SHarqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't sochar qurol, ya'ni to'p-ra'dni olib kirdi;³
- Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi;
- Amir Temur jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida etti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi;⁴
- Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan.⁵

¹ Қаранг: Муминов И.М. Роль и место Амира Тимура в истории Средней Азии. Ташкент, 1968, б. 28-29, Граков Б.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрта ва унинг кулаши. Тошкент, 1956, 288-318 б. Автобиография Тимура. Богатюрские сказания о Чингизхане и Аксак-тимуре. М.-Л., 1934; Иванин М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и среднеазиатских народов при Чингизхане и Тимурлане. СПб., 1875 (мазкур асардан Amir Temur harbiy san'ati nomli parча Turon tarixi jurnali 1992 йил 1 сон 10-14 бетларида chop этилган); А.Ю.Якубовский Тимур ... б. 68.

¹ Қаранг: В.М.Махмудов Amir Temurning harbiy sarkardalik mahorati. Тезислар. Т.Ўзбекистон 1996, -Б. 25-26

² Қаранг: Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрта... 293 б; Якубовский А.Ю. Тимур... -Б. 70.

³ Қаранг: Беленицкий А.М. О появлении огнестального оружия в Средней Азии и Иране в XIV-XVI вв. //Известия АНСССР, Таджик. филиал. Сталинабад. 1949.

⁴ Қаранг: Якубовский А.Ю. Тимур... -Б. 70.

⁵ Қаранг: Ибн Арабшоҳ. Amir Temur tarixi. II китоб, -Б. 99-100.

Sohibqiron armiyasida muntazam qo‘shinga xos bo‘lgan ko‘pgina belgilar mavjud edi: qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi-*yasol* jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o‘z zamonasining ilg‘or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog‘, aslah-anjom bilan ta‘minlangan, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayroq yoki tug‘i orqali ham farqlangan.¹ Bunday ajralib turish jang paytida qo‘shinni boshqarishda juda qo‘l kelgan.

Dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g‘anim tomonning yirik va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo‘lgan shaharlariga qo‘qqisdan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning bashliqlarini va, ayniqsa, lashkarboshilarini hibsga olish, qal‘a hamda qo‘rg‘onlarni uzoq muddat davomida muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar, tuman, viloyatlarini birin-ketin fath etish, dushmani batamom yakson etgunga qadar ta‘qib qilish, fath bo‘lgan yurtlarni boshqarish uchun o‘zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategik maqsadlarini ko‘zlab ish yuritish Amir Temurga ko‘plab zafarlar olib keldi.

Taktika jihatdan Temurbek armiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo‘shin etti qism-*qo‘lga* ajratilgan, razvedka a‘lo darajada yo‘lga qo‘yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida katta e‘tibor qaratilgan. Temurbek *o‘nlik*, *yuzlik*, *minglik* hamda *tuman* qo‘mondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo‘lgan ko‘mondonlarning to‘g‘ri tanlanganligi va o‘z joyiga qo‘yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Sohibqironning harbiy san‘ati rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri-qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha ganim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-*kunbul* – *kunbulning* joriy etilishidir. Bunday

¹ Қаранг: Разин Е.А. История военного искусства. Т. II, М., 1957, -Б. 234.

mutlaqo yangi harbiy qism, tarixning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Lyudvig XIV, Buyuk Fridrix, CHingizxon kabi dongdor sarkardalar qo‘shinida bo‘lmagan. Faqat XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovar tartibida qo‘shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjudligini kuzatish mumkin. Harbiy mutaxassislarning, Napoleon sharq mamlakatlariga harbiy safar qilishdan avval Temurbek armiyasi tuzilishini, uning jang olib borish yo‘l-yo‘riqlarini sinchiklab o‘rgangan, zarur topgan taktib usullarni o‘zlashtirgan degan mulohazasi, haqiqatdan yiroq emas.¹

Harbiy qo‘mondonga beriladigan eng xolis baho-uning janglarda erishgan g‘alabasidir. SHu nuqtai nazardan Amir Temur tarixdagi buyuk sarkarlarda orasida alohida o‘rin egallaydi.²

«Qilich ushlay olgan qo‘lgina saltanat mayog‘ini ushlashi mumkin!»-der edi Temur. *U paytlarda harbiy san’atkorlik siyosiy peshqadamlikka teng ma’noni ifodalagan.*³ Lekin urush uning tushunchasida nima bo‘lgan? Amir Temurning siyosati boshqa usullar bilan urushish, ya’ni zabt etilgan mamlakatlar va xalqlar ustidan nazorat qilish emas, balki siyosatni, u qanaqa siyosat bo‘lmasin, yirik harbiy o‘yinning bir qismi sifatida tushungan va ko‘rgan.

SHu bois Amir Temurning keng miqyosli siyosatini tushunmoq uchun, eng muhimi. «Urush» tushunchasini XIV asr kontekstida aniqlab olish juda muhim. Amir Temur o‘zi ish g‘ol qilgan erlardan ketgach, o‘zidan keyin puxta va muhim boshqarish tizimini juda kamdan-kam qoldirgan. SHuning uchun ham bir marta ish g‘ol qilgan shaharlarini ikki, uch va hatto to‘rt marta qayta ish g‘ol qilgan. SHaharlar, mamlakatlar uning tushunchasida nazorat ob’ekti emas, balki yurish, harakat qilish maydoni bo‘lgan.

Mazkur tushunchani qanday qilib qadimgi yoki hozirgi kun geosiyosat konsepsiyasiga singdirish mumkin? Zero, uzoq o‘tmishdan to hozirgi kuna qadar insoniyatning hududga munosabati ijtimoiy va siyosiy birlashmalar tuzishda asosiy

¹ Қаранг: Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома, Тошкент, Камалак, 1994, -Б. 103-113

² Нельсон Р. Темур ҳарбий стратег ва улкан сиёсатдон сифатида. Ҳозирги давр талқини. Қаранг:... «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихида туган ўрни» мавзудидаги халқаро конференция тезислари. Т.Ўзбекистон 1996, -Б. 31

³ Нельсон Р. Темур ҳарбий стратег ва улкан сиёсатдон сифатида. Қаранг:... тезислар, -Б. 31

mezon bo‘lib kelmoqda. Lekin bunday munosabat ham har hil bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrimlar hududga o‘z mulki sifatida qaraydilar. Hududga nisbatan bo‘lgan siyosat, hozirgi kunda egalik qilish, raqobat tushunchalari bilan uyg‘unlashgan holda ko‘rinadi. SHunday qilib, *geosiyosat nisbatan keng ahamiyat kasb etadi va hudud bilan hokimiyat orasidagi o‘zaro munosabat to‘g‘ridan-to‘g‘ri erlarni zabt etish, ishg‘ol qilish bilan cheklanib qolmasdan, o‘ziga yana boshqa bir qator masalalar-erlarga egalik va yo‘llar ustidan nazorat, guruhli alyans, migratsiya va hokimiyatning boshqa qirralarini o‘z ichiga oladi.*

SHu nuqtai nazardan Temurning yana bir jihatiga tan bermay iloj yo‘q-u bir qator madaniyatlararo yaxshigina ko‘prik o‘rnatgan: masalan, ko‘chmanchilar bilan o‘troq xalqlar orasida, mo‘g‘ullar, turklar, forsiylar, G‘arb va SHarq o‘rtasida va hokazo.¹

YUtgiziqsiz maqsad-Amir Temur dahosining asosini tashkil etadi.

Amir Temurning birinchi maqsadi urug‘ hokimligidan ustun bo‘lgan qonuniylikni yuzaga keltirish edi. U dushman qabilalarini to‘liq yo‘qotish o‘rniga ularning ichiga nominal hokimlikni kuchaytirish yo‘li bilan saylov tizimini joriy qildi va shu vaqtning o‘zida ularning hokimlik vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan real qobiliyatlarini susaytirdi. Qachonki u urug‘ hokimligiga jiddiy qodir biror dushmandan xalos bo‘lishni hohlasa, boshqa dushmanga u bilan hisoblashishga imkon tug‘dirib berardi. SHunday qilib, u ustomonlik bilan o‘zini qabilalararo adovat ustiga qo‘yishga erishdi.

Amir Temurning strategik tafakkuri bunday ittifoqlikni yo‘lga qo‘yishni ikki darajada-urug‘ va mintaqada amalga oshirar edi va shu ikki daraja umrining oxirigacha ishlab keldi.

Ittifoqchilardan strategik maqsadlarda foydalanish tug‘ma noziklik bilan qorishib ketdi. Jang mobaynida Temur noziklashib qolgan qismlariga yordamga shoshilar, chunki uning butun rejasini barbod qilishlari mumkin edi. Uning farosati va iymoni shunchalik kuchli ediki, hatto u yurishlarining eng zarur nuqtalarida to‘xtatib qo‘yib undan ham yangiroq yurishlarni boshlab qo‘yar edi, lekin shu

¹ Нельсон Р. Темур харбий стратег ва улкан сиёсатдон сифатида. Қаранг:... тезислар, -Б. 31.

vaqtda avval qo'yilgan maqsadlarini esdan chiqarmasdi. Kelajak yurishlarini mukammal ravishda tayyorlaydigan muhim strateg bo'lgan Chingizxonidan farqli o'laroq, Temur haqiqiy realist edi.²

Temurning strategik dahosi usta geosiyosiy arbob bo'lish qobiliyatiga ko'proq xosdir. Birinchi qarashda tartibsiz ko'ringan yurishlar izchil xususiyatga ega bo'lmasalar ham, aniq bir rejaga asoslangandi.

Temur saltanatga turli madaniyatlarni o'zida mujassam etgan va bugungacha yashab kelayotgan Evrosiyo g'oyasini shaxsan ishlab chiqqan birinchi shaxs edi. Grosset ta'kidlashicha, «uning imperiyasi turkiy-fors, qonunchilik tizimini turkiy-chingiziy va siyosiy-diniy tartibi-arab» deb aytgan. Zarurati jihatidan Temur bu xislatlarni ustomonlik bilan birlashtirgan. Amir Temur shunday etuk siyosiy arbob va sarkarda ediki, u ko'chmanchilarning qobiliyatlarini, mo'g'ullarning jasoratini, mo'minlarga xos iymon-e'tiqodni o'zida mujassamlashtirgan edi. SHu ma'noda u o'sha paytlarda ko'p jihatdan ilg'anmaydigan tushuncha bo'lmish hozirgi zamon «sivilizatsiyalar to'qnashuvi»ning dastlabki darakchisi bo'ldi. Hamma madaniyatlar ma'lum ma'noda o'ziga xosdir, lekin ularning turli elementlari vaqt o'tishi bilan o'zgaradigan strategik qadriyatlarga aylantirilishlari mumkin. Temur bu nazariy imkoniyatni tushunib etgan Markaziy Osiyodagi birinchi shaxs edi va uning taktik dahosi buni amalga oshirdi.

Umuman aytganda, Amir Temur geostrategiyasining qabilaviy va mintaqaviy jihatlari bir-birlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. SHuni eslatib o'tish kerakki, Temurning siyosiy dahosi va harbiy qobiliyati uning har bir alohida mintaqada joriy etgan qonunchiligida ko'rindi.

Temur o'z kamchiliklarini ham tushunar edi, lekin buni u boshqalarning kamchiligida to'g'ri xulosa chiqarish bilan to'ldirib borardi. Masalan, To'xtamishning ishni paysalga solishi, Boyazidning manmanligi, fors amirlarining o'zlariga bino qo'yishlari va boshqalardan oqilona foydalanganini ko'ramiz.¹ Temurning kuchi uning «butkul tugatish o'rniga ichdan qulatish, qurish o'rniga

² Ўша асар, -Б. 32.

¹ Нельсон Р. Темур харбий стратег ва улкан сиёсатдон сифатида. Қаранг:... тезислар, -Б.33

tenglashtirish» yo‘lidan borganligidadir. Bu narsa hozirgi zamon geosiyosatiga ham juda mos keladi. Bundan tashqari, u Markaziy Osiyodagi voqealar boshqa hamma mintaqalarga ham albatta ta’sir etadi, deb tushungan. SHu bilan birga u olib borgan siyosat, harbiy yurishlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmasa ham, ma’lum ma’noda o‘zga, tashqi mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganligi tarixdan ma’lum. Masalan, u mo‘g‘ullarning Xitoyga bo‘lgan xavfini, Oltin O‘rdani olish bilan Moskva Rusiga bo‘lgan xavfni bartaraf etadi. SHunday qilib, litvaliklar va polovetslarning Rossiyaga hujumlari ham barham topadi. U Konstantinopolning usmonli turklar tomonidan zabt etilishini yarim asr orqaga surdi, biroq turklarni Kichik Osiyodan ta’qib eta borib, Evropada bir umrga qolishlariga imkon berdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur hozirgacha yashagan ajdodlar orasida ham, bundan so‘ng yashaydigan avlodlar orasida ham eng buyuk shaxs bo‘lib qolaveradi.

Amir Temur bir necha yillar davomida olib borgan qahramonona kurashlari tufayli 150 yillik mo‘g‘ullarning hukmronligi qo‘porib tashlandi. U xalqning ozodlik kurashiga boshchilik qilib Vatan mustaqilligi va ozodligini tikladi. *U mustaqillik va ozodlik ramziga aylandi.*

Buyuk davlat arbobi va mashhur lashkorboshi Amir Temur o‘zining butun hayotini o‘zbek xalqi ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashga bag‘ishladi. U hamisha Vatan ishq va xalq dardi bilan yashab, jang maydonlarida qahramonlik namunalarini namoyish etdi. *«Boshimga,-deydi Amir Temur,-po‘lat dubulg‘a, egnimga dovudiy sovut kiydim, belimga misr qiligini bog‘lab, bahodirligu kurash taxtiga o‘tirdim... Saltanat to‘nini kiygach, tinchligu sog‘lig‘im ketdi, o‘z to‘shagimda rohatda uxlash, huzur-halovatdan voz kechdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo‘llab (g‘anim) favjlarini sindirdim. Amirlar va sipohlarning isyonlarini ko‘rdim, ulardan achchiq so‘zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh bilan o‘zimni eshitmagan va ko‘rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko‘tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim».*¹

¹ Темур тузуклари, -Б. 49, 54.

Darhaqiqat Amir Temur Vatan mustaqilligi va yurt ozodligini tiklash, uning taraqqiyotini ta'minlash, Turkiston zaminini jahon davriga olib chiqa olgan buyuk Inson edi.

«Amir Temur tarixi» asarining muallifi Ibn Arabshoh ham Sohibqironning fazilatlarini sharhlab yozgan: «*Temur tengi fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib tafakkur dengizining qa'ri yo'q va (uning) tadbiri tag'icha na tekisligu, na g'adir-budur orqali yo'l topiladi*».

Xalq mafkurasi Amir Temur siymosida va faoliyatida to'la ifodasini topdi, davlatning mohiyati va yo'nalishini belgiladi. U, bu davrda ham siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarga ega edi.

Vatan-yurt g'oyasining tutgan muhim o'rnini 1370 yilda Amir Temur davlatining barpo etilishida namoyon bo'ldi. Bu erda uning mustaqillikni tiklash haqidagi da'vati amalga oshirildi. Markazlashgan va qudratli davlatni yuzaga keltirish mafkuraning asosiy yo'nalishiga aylandi: «... *Movarounnahr viloyatini (mo'g'ullar) vujudining xas-xashagidan tozalaganimdan keyin ... o'zimcha kengashdimki, «Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir. SHunday bo'lgach, Alloh taolloning muqaddas mulki – er yuziga egalik qiladigan (kadxudo) kishi ham bitta bo'lishi kerak*»¹. Amir Temur o'zining bunday siyosatini hokimiyatni qo'lga olgunga qadar va keyin ham izchillik bilan olib borishi tufayli butun mamlakatda tinchlik va osoyishtalik ta'minlandi.

Umuman olganda, Amir Temur davlatchiligi, uning boshqaruvdagi o'ziga xos tamoyillari nafaqat bugungi o'zbek milliy davlatchiligi, balki jahon ma'rifiy davlatchilikning tamoyillariga asos bo'lmoqda. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

Eng avvalo, sohibqironning: «*Barcha ishlarimning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushii esa qilich bilan bajo keltirdim*»², degan dono o'g'itlari mamlakatlar Prezidentlarining dunyo muammolarini va ichki masalalarni hamjihatlik, oshkora muzokoralar yo'li bilan hal etish tarafdorlari sifatida amalga oshirayotgan faoliyatida o'z ifodasini topmoqda. *Xalqaro*

¹ Тему́р тузуқлари, -Б. 35

² Тему́р тузуқлари, -Б. 25.

masalalarni hal etishda «tomonlarning bir-biriga yon berish va murosa yo‘li bilan bir-biriga yaqinlashuvi, har bir mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi, barcha manfaatdor tomonlarning muzokara jarayonida ishtirok etishi, qay shaklda bo‘lmasin, tashqaridan ta‘sir o‘tkazish va aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik» tamoyillari Amir Temurning mashvaratu kengash vositasida siyosat yuritishini eslatadi.

Mamlakatlar parlamentlari va xukumatlarining o‘z sessiya va kengashlarida muhim dolzarb masalalar yuzasidan ochiq fikr almashuvi temurona demokratiyaning yangi shakldagi ko‘rinishidir.

Ikkinchidan, Amir Temurning: *«CHaqaloqlarni yig‘latmangiz, bolalarga ozor bermangiz-bu gunohi azim erur. Bunday gunohni Alloh xush ko‘rmagay»*, degan gaplar bizning Prezident ham xalqaro hamjamiyat davlatlari rahbarlarining onalar va bolalarga g‘amxo‘rligi, ularga tibbiyot xizmati ko‘rsatish va ijtimoiy muhofaza qilishni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan tadbirlari, xalq ta‘limi va bolalar tarbiyasini isloh qilish hamda xotin-qizlar hayotini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlari sohibqiron davlat shajarasining, Amir Temur ma‘naviyatining davom etayotganidan dalolat beradi.

Ulug‘ bobokalonimizning birgina «Kuch-adolatda», degan gaplari bugun nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda yangi davlat qurilishiga asos qilib olindi. Huquqiy demokratik, adolatli davlatni barpo etish, insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillari avvalo Amir Temur mamlakatdorlik maktabining ilg‘or jahoniy tajribalar bilan uyg‘unlashgan mahsulidir.

Sohibqironning: *«Davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk (davlat hududi, mamlakat.), xazina va lashkar bilan tikdir»*, degan fikrlari davomini Prezident Karimovning davlat suvereniteti, uning hududiy yaxlitligi, milliy xavfsizlik, xazinaning baquvvatligi va qurolli kuchlarning jangovarlik holatiga alohida e‘tibor berayotganida ko‘rishimiz mumkin. Bu mamlakatimizda harbiy akademiyaning tashkil etilishi, milliy xavfsizlik, harbiy doktrinaning ishlab chiqilishi, qolaversa,

mamlakat xazinasini muntazam to'ldirib borish borasidagi izchil va oqilona faoliyatda ham o'z aksini topmoqda.

II bob. A.Temur va temuriylar davrida ilm- fan va madaniyat

II.1. Mirzo Ulug‘bekning jahon sivilizatsiyasiga

qo‘shgan hissasi.

Ajoyib olim va davlat arbobi **Muhammad Tarag‘ay ibn SHohruh ibn Temur Ko‘ragon-Ulug‘bek** (1394-1449) tomonidan XV asrda yaratilgan va o‘zi bevosita rahbarlik qilgan Samarqand ilmiy maktabi o‘rta asrlarda YAqin va O‘rta SHarq astronomiyasi va matematikasi tarixida yorqin iz qoldirgan. Ulug‘bek maktabi olimlarining ishlari SHarq mamlakatlarida tez ommalashib ketgan bo‘lsa ham, Evropa ilmiy davralarida XVII asrga kelibgina ma‘lum bo‘la boshlagan.

Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasasi ikki kavatli, 50 hujrali bo‘lib, har bir hujra 3 xona: qaznoq (omborxonona), yotoqxonona va darsxonadan iborat bo‘lgan. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, madrasada 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta‘lim olgan. Madrasada zamonasining iqtidorli olimlaridan Mavlono SHamsuddin Muhammad Havofiy etakchi mudarris bo‘lgan. Mashhur olimlardan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy hamda Mirzo Ulugbekning o‘zi va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars berganlar. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, madrasada ilmi hay‘at (astronomiya) darsini Qozizoda Rumiy o‘tgan¹.

Ulug‘bek farmoyishi bilan qurdirilgan rasadxona o‘z davrining akademiyasi bo‘lgan. SHu asosda 1429 yil Samarqandda Mirzo Ulug‘bek tomonidan **«Dorul – ilm» - Samarqand akademiyasiga** asos solindi. Ulug‘bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan kishi bu fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi Volter (taxallusi; asl nomi Mari Fransua Arue (Arouet) 1694 – 1778) dir. Uning tarixiy mavzudagi «Millatlarning holatlari va odatlari haqida» (1753 – 58) asarining 3 – jildi Amir Temur va temuriylar xukmdorligiga bag‘ishlangan. Volter o‘z asarida Ulug‘bek haqida, uning podsholigi, Samarqandda ilmu ma‘rifatni taraqqiy ettirib, fan rivojiga katta hissa qo‘shganini hurmat bilan ta‘kidlab «Ulug‘bekning

¹ O‘zbekiston tarixi: o‘quv qo‘llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma‘sul muharrir S. Inoyatov. – T.: “Sharq”, 2013. – B. – 231.

buyukligi, uning qilgan ishlari bilan belgilanadi. U Samarqandda birinchi Fanlar akademiyasini yaratdi, er kurrasini o'rgandi, koinot va yulduzlarni kashf etib mashhur jadval tuzdi...», deb yozadi¹.



Ян Гевелийнинг «Астрономия даракчиси» китобидан олинган гравюра
(Улугбек - чапдан учинчи)

faoliyat ko'rsatib ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa astronomiya, matematika singari aniq fanlar bo'yicha barakali ijod qildilar hamda o'zlaridan ulkan ilmiy meros qoldirib ketdilar.

Rasadxona o'rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Unda kichik o'lchamli asboblari: armillyar sfera, 2, 4 va 7 halqadan iborat o'lchov asboblari, triangula, quyosh hamda yulduz soatlari, asturlob va boshqalar bo'lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan.

Mirzo Ulug'bek rahbarligida yaratilgan Samarqand olimlarining asosiy asari «Ziji Ko'ragoniy» juda mashhur bo'lib, undan keng ko'lamda foydalandilar. SHu sababli akademik V.V. Bartold bu risolaga haqqoniy baho berib – bu asar o'rta asr astronomiyasining oxirgi so'zi va teleskop yaratilgunga qadar astronomiya erishishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'onadir, degani bejiz emas. Risola Samarqandda Ulug'bek tomonidan qurilgan, o'sha zamonning eng yuqori darajali

¹ O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma'sul muharrir S. Inoyatov. – T.: "Sharq", 2013. – B. – 231.

astronomik asboblari bilan ta'minlangan mashhur observatoriyada olib borilgan kuzatishlar asosida yozilgan.

Ulug'bek shaharlarni, ayniqsa Samarqandni obodonlashtirishga alohida ahamiyat berdi. Uning davrida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta katta madrasa, machitlar va karvonsaroylar qurildi, Samarqanddagi Go'ri Amir va SHohi Zinda, SHahrisabzdagi Ko'k Gumbaz me'moriy ansambllari nihoyasiga etkazildi, hunarmandchilik va savdo ishlari keng yo'lga qo'yildi. Soliq tizimini tartibga solish dehqonchilikni rivojlantirishda katta turtki bo'ldi.

Ulug'bek davrida Samarqand o'rta asr SHarqidagi katta ilmiy markazga aylandi. Aniq fanlardan astronomiya va matematika ayniqsa keng rivoj topdi.

Ulug'bek va uning atrofiga uyushgan olimlar tufayli Samarqand O'rta Osiyoning yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Bu erda Ulug'bek, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, shoirlardan Sakokkiy va Badaxshiy kabi ko'plab olimu fozil kishilar zo'r ilhom bilan ijod qildilar¹.

Samarqand maktabi olimlari «*Ziji Ko'ragoniy*» va Ulug'bek risolalari tahliliga bag'ishlangan asarlardan tashqari o'z zamonalari uchun matematika sohasida juda qadrlil hisoblangan qator risolalar yozishgan. SHulardan eng muhimlari G'iyosiddin Jamshid al-Koshiyning «*Arifmetika kaliti*» (miftax al-hisab) va «*Aylana haqida risola*» (risola al-muhitiyya) asarlaridir.

«*Arifmetika kaliti*» XV asrdagi matematik bilimlar qomusi (ensiklopediya) bo'lib, o'sha davr matematiklari tomonidan arifmetika, geometriya va algebra bo'yicha egallangan, barcha ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan. SHuningdek Al-Koshiy o'z asarlarida mustaqil tadqiqotlarining ba'zi natijalarini keltiradi. Bu esa Ulug'bek maktabi olimlarining nazariy saviyasi juda yuqori bo'lganligini

¹ Ахмедов Б.А. Улуғбек замони. Қаранг: Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган халқаро илмий анжуманнинг материаллари. Тошкент-Самарқанд. Ўзбекистон 12-16 октябрь 1994 йил. Т., «Фан», 1994. -Б. 197.

bildiradi va ularning o'zni hisoblash matematikasi sohasida ham o'rta asrlarda, SHarqda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi².

Al-Koshiyning aylana uzunligini hisoblashga bag'ishlangan «*Aylana haqida risola*»¹ asari hozir ham taqribiy hisob bo'yicha durdona asar hisoblanadi.

Samarqandlik ikkinchi yirik olim Jamshid Koshiy avvaliga Hirotda SHohrux saroyida xizmatda bo'lib, unga atab «Ziji xaqqoniy dar takmili «Ziji Elxoniy» nomli astronomik asarini bitgan edi... Qozi Zodaning maslahati bilan Ulug'bek 1416 yili Mavlono Koshiyning bevosita ishtirokida Ulug'bek rasadxonasi rejalashtirildi. Pokistonlik olim Abbas Rizviy aytganidek, «Koshiyning astronomiya va astronomik asboblarni, qadimgi va yaqin o'tmishdagi astronomlar, ayniqsa, Marog'a va SHeroz rasadxonalari astronomlari ishlarining yaxshi bilganligi uni nodir bir shaxsga aylantirgandi».

Jamshid Koshiy juda qimmatli bir hujjatni – XV asr 20-nci yillari boshida Koshonga, o'z otasiga yozgan maktubini qoldirgan. Bu maktubda u Ulug'bekning nodir aqliy zakovatiga yuksak baho beradi.²

Ulug'bek «Zij»ining muqaddimasida nomi eslatilgan samarqandlik uchinchi yirik olim Alovuddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1402 yilda tug'ilgan) edi. Keyinchalik u Movarounnahrning yirik olimlaridan biri bo'lib shakllandi va **SHarq bilan G'arb fanini tutashtiruvchi bir halqa burchini ham ado etdi.**

1460-yillarining boshida Ali Qushchi Samarqandni tark etadi va avvaliga Xurosonga, so'ng Kermonga, Tabrizga ko'chadi, 1473 yil boshida Usmonli turklarning yangi poytaxti Istambulga ko'chadi va 1474 yilning dekabrda shu erda vafot etadi.

² Аюпов Ш.А. Матвиевская Г.П., Улугбек илмий мактаби ва унинг математика тарихида ўрни. Қаранг: ўша жойда. -Б. 247

¹ Ашраф Аҳмад. Улугбек Муҳаммад Тарағай. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994, -Б. 23

² Юсупова Д.Ю. Письмо Гияс ад-Дина Коши в своему отцу в Кашан – В сб: Из истории науки эпохи Улугбека. Ташкент, «Фан», 1979, С. 37-64.

Ali Qushchi Istambulga kelishi bilanoq Ayo Sofiya masjidida madrasa tashkil qilib, unga olimlarni to'playdi va matematika, astronomiya sohasida tadqiqotlar olib boradi. SHunday qilib, u shu mamlakatda tadqiqotlarga birinchi bo'lib asos solgan.

Mirzo Ulug'bek «Zij»dan tashqari uning qalamiga yana uch asar mansub: «*Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola*»¹, risolaning Berlin va Qohirada ikkita nusxasi borligi aniqlandi.² «*Risolai Ulug'bek*» deb nomlangan yana bir matematik risolasi Hindistonda Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Ulug'bek yaqin vaqtlargacha fan tarixida faqat astronom va matematik sifatida ma'lum edi., holbuki o'rta asr mualliflari uni klassik arab va fors adabiyotining nozik taraflaridan xabardor, musiqa va tarixni biluvchi sifatida ta'riflar edilar. Taniqli olim B.A.Ahmedov birinchi bo'lib Ulug'bek mo'g'ul davlatiga oid «*Tarixi arba' ulus*»³ nomli tarixiy asar yozganligini aniqladi va uni nashrga tayyorladi. Asarning birgina, to'liq bo'lmagan nusxasi Londonda sobiq Britaniya Muzeyida saqlanadi.⁴

Ulug'bekning butun dunyo miqyosida unga shuhrat keltirgan asosiy asari «*Ziji Ulug'bek*», «*Ziji sultoniy*» va «*Ziji jadidi Kuragoniy*» nomlari bilan ma'lum. Ulug'bek «Zij»i o'rta asr astronomiyasi va matematikasiga doir yozma manba'lar ichida eng ko'p sonda saqlanganlaridandir: 108 nusxa. Ulug'bek asari islom dunyosida nihoyatda mashhur bo'lgan edi.

Ulug'bek «Ziji»ning astronomiya tarixi uchun ahamiyati beqiyos va bebahodir. Sayyoralar, Quyosh va Oy harakatlari borasida yulduzlar jadvali va qo'llanilgan matematik usullariga ko'ra o'rta asrlarda yozilgan astronomik

¹ Юсупова Д.Ю. Пистмо Гияс ад-Дина Коши в своему отцу в Кашан – В сб: Из истории науки эпохи Улугбека. Тошкент, «Фан», 1979, С.37-64.

² Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII – XIX вв.) кн. 2-М. «Наука», 1983, С.493

³ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Т., «Чўлпон», 1994.

⁴ Ахмедов Б.А. Улугбек и его исторический труд. «Тарих-и арба улус». – В кн: Из истории науки эпохи Улугбека

asarlarning eng mukammali bo‘lib, Ulug‘bek «Zij»i eng avvalo musulmon mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Ulug‘bek «Ziji»ga yozilgan eng yaxshi mukammal sharh Nizomiddin Abdulali ibn Muhammad ibn Husayn *Birjandiy* tomonidan 1523 yili yozilgan «*SHarhi Ziji Ulug‘bek*»dir⁵.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII-XVIII asrlarda qator musulmon olimlari Ulug‘bek «Zij»ini sharhlash, qayta ishlash va tarjima bilan shug‘ullandilar: suriyalik olim Taqiiddin ash-SHomiy (1526-1585), misrlik olim Abdulqodir al-Manufiy ash-SHofi’iy (XVI asr), Hindistonda imperator Akbar (1556-1605) saroyida ishlagan eronlik olim SHoh Fathulloh SHeroziy, XVII asrning ikkinchi yarmida Husayn Kas’a nomli astronom, misrlik olim Rizvon ar-Razzoq al-Misriylar ijodida «Ziji Ko‘ragoniy» muhim o‘rin tutdi¹.

Va nihoyat hind olimi va davlat arbobi Savoy Jay Singx (1689-1743) Hindistonning Boburiy sultoni Muhammadshohning (1719-1748) farmoni bilan Ulug‘bek rasadxonasi holatlarini o‘rganib, Dehli, Banoras, Jaypurda, rasadxonalar qurdi. Keyin u homiylik qilgan sultonga bag‘ishlab «Ziji Muhammadshohiy»ni yozdi.

Ulug‘bek nomi Evropada va umuman g‘arb dunyosida buyuk bobosi Amir Temurning shuhrati tufayli ancha tez ma’lum bo‘ldi. Temurning Boyazid ustidan zafari haqidagi xabar XV asr boshidayoq Evropada yashin tezligidek tarqalgan edi. CHunki 1402 yilgi Anqara yaqinidagi jangda ispan elchilari Payo va Ernan ishtirok etib, bu haqda tezda Ispaniyaga xabar etkazgan edilar. Ispaniya orqali esa butun G‘arbiy Evropa bu olamshumul tarixiy voqea haqida xabardor bo‘lgan edi. 1582 yili Klavixo «Kundaliklari»ning Seviliyada nashr etilishi va 1607 yili Parijda «Buyuk Temurlang tarixi»ning nashr etilishi rivojlanib kelayotgan Evropaning madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. SHuning uchun ingliz astronomi Jon Grivs (1602-1652) tomonidan 1642 yili lotin tilida eng birinchi asarning hatto

⁵ Ашраф Аҳмад. Муҳаммад Улуғбек Тарағай, -Б. 34

¹ Ўша жойда, -Б. 35-36

nomidayoq Ulug‘bek «buyuk Temurlangning nabirasi» deb eslatiladi. 1665 yili yana bir ingliz olimi – Tomas Hayd (1636-1703) Jon Grivs bilan aloqasiz ravishda Ulug‘bek «Ziji»dagi yulduzlar jadvalini fors va lotin tillarida nashr etdi.

1690 yili Polshada Gdansk shahrida YAn Geveliy (1611-1687) «Prodromus astronomiya» asarini nashr etdi. Bu asarda u Ulug‘bek jadvalini Ptolemey, Tixo Brage, Richchioli va o‘zining jadvallari bilan solishtirdi. 1767 yili ingliz olimi G.SHarp, 1803 yili Fr. Beyli (1774-1844) T.Hayd tomonidan tayyorlangan Ulug‘bek yulduzlar jadvalining uchinchi ancha mukammallashtirilgan nusxasini chop etdilar.

Fransuz sharqshunosi L.A.Sediyo (1808-1876) «Zij» astronomik jadvallarining bir qismini nashr etdi. Uning o‘zi 1847-1853 yillarda «Zij» to‘rttala kitobining nazariy-kirish qismlarini, birinchi kitob muqaddimasini izohlari bilan fransuz tilida bosmadan chiqardi.

Amerikalik tadqiqotchi E.B.Nobl 1917 yili 27 qo‘lyozma asosida Ulug‘bek yulduzlar jadvali tanqidiy matnini bosib chiqardi. Va nihoyat, 1927 yili K.SHoy «Zij»ning trigonometrik jadvallarini nashr etdi¹.

Ulug‘bek katalogining bir qismi 1648 yilida Oksfordda nashr etildi. SHunday qilib, Ulug‘bek ziji nihoyasiga etkazilgandan keyin ikki yuz yil o‘tgach, evropada ilk bor ma’lum bo‘ldi. Katalogdagi yulduzlar sonini va katalog tuzilgan vaqtini ko‘rgan evropalik astronomlarning qanchalik hayratda qolganligini tasavvur etish mumkin. Ulug‘bekning bu katalogi astranomiya tarixidagi «Al-Mojistiy»da nashr etilgan Gipparkos katalogidan keyingi birinchi mustaqil katalog edi.

Ulug‘bek maktabining ilmiy asarlarida matematikaning yassi va sferik trigonometriya va, ayniqsa, takribiy hisoblash usullari yo‘nalishlari taraqqiy topdi. Masalan, bir gradus sinusining 13-xonagacha bo‘lgan aniq qiymati hisoblanganligini ko‘rsatish mumkin. Buning asosida osmon jismlari koordinatlarini bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tkazishda qo‘llaniladigan

¹ Ўша жойда, -Б. 42

trigonometrik jadvallar tuzildi. Samarqand astronomlari foydalangan oʻnli kasr Evropada XVII asrdagina qaytadan kashf etildi.

Bu esa «Zij»ning butun dunyo fani tarixidagi roli ulkan ekanligidan guvohlik beradi. Bir necha asr davomida uni izohladilar, tadqiq qildilar va uni tushunishga harakat qildilar. XVII asrda va to XVIII asr oʻrtalarigacha deyarli butun Evropa oʻz fanining darajasi va aniqligini unga solishtirib koʻrib bildi. Ulugʻbek «Ziji» oʻrta asrlardagi astronomiyaninggina emas, balki matematikaning eng yuqori choʻqqisi edi. Ulugʻbek qoʻllagan matematik uslub, formulalar va qoidalarining yuksak darajada aniq ekanligi bundan guvohlik beradi.

II.2. A.Temur va temuriylar davrida ilm -fan taraqqiyoti.

Amir Temur oʻz mamlakatining ilmu – urfon, madaniyat va sanʼat ahliga xorijiy ellardan koʻplab hunar-kasb ahllarini, meʼmoru naqqoshlarini, olimu fozillarini oldirib kelib, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berib, ularning bilimi, tajribasi va isteʼdodini ishga solib, hayratomuz ulugʻvor bunyodkorlik va ijodkorlik ishlarini roʻyobga chiqardi. Bu davrda bunyod etilgan betakror meʼmoriy obidalar, osori-atiqalar, yuksak sanʼat asarlari, ilmiy-madaniy meros namunalari bunga yorqin dalil boʻla oladi. Amir Temur salohiyatining ajoyib ifodasi boʻlgan «Tuzukot»da sohibqironning ilm-fan, maʼrifat ahliga har doim alohida eʼtibor berganligi va har bir muhim ishni amalga oshirishda ularga qatʼiyan suyanganligi qayta-qayta taʼkidlab oʻtilgan. Amir Temur davrida yashab ijod qilgan allomalardan Jaloliddin Turonshoh (vafoti 1385), Bahovuddin Naqshband (vafoti 1389), Xoja Hofiz SHeroziy (vafoti 1389), Xoja Kamol Xoʻjandiy (vafoti 1391), Allomai Taftazoniy (vafoti 1392) va boshqalarni eslash kifoyadir.

Movarounnahrda, xususan, Samarqandda ilm – fan va sanʼatning taraqqiyotida Ulugʻbek va uning atrofida yigʻilgan olimlarning oʻrni va hissasi nihoyatda buyukdir. Ulugʻbek farmoni bilan bunyod etilgan Samarqand, Buxoro, Gʻijduvon shaharlardagi madrasalarda Qurʼon, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat

qonun – qoidalari), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jo‘g‘rofiya (geografiya), ilmu aruz (poetika), arab tili kabi dunyoviy ilmlar ham o‘qitildi. Hatto, Buxoro madrasasining darvozasiga: «Bilim olish har bir musulmon ayolu erkakning burchidir», degan kalima yozib qo‘yilgan.

Amir Temur davrida O‘rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni-faylasuf va donishmandlarni, shoir va san’atkorlarni, me’mor va sohibi hunarlarni etishdirdikim, ular o‘z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo‘shganlar. SHuning uchun ham Amir Temur shaxsi uning siyosiy, ijtimoiy faoliyati, falsafiy qarashlari qariyb besh yuz yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘rta Osiyo tarixining bu yorqin va hayratomuz sahifalarini o‘rganish, uni barchaning ma’naviy mulkiga aylantirish hozirgi kunning ham muhim vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Sohibqiron Amir Temur davrida O‘rta Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, mamlakat ichida tinchlik o‘rnatilishi shubhasiz mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san’at, hunarmandlik va me’morchilik ravnaq topdi. Sohibqiron mamlakat va uning poytaxti Samarqandning obodonligiga katta e’tibor berdi. Buning uchun Movarounnahrning hamma joylaridan, yaqin va O‘rta SHarq o‘lkalaridan, tobe mamlakatlardan juda ko‘p fan va san’at ahllarini, iste’dodli sohibi hunarlarni, me’mor va musavvirlarni poytaxtga to‘pladi.

1404-1406 yillarda Samarqandda bo‘lgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo bu haqda o‘z kundaliklarida Samarqandning benihoya obodonligini, aholisi beqiyos ko‘p va gavjumligini, Samarqandda erli xalqdan tashqari xristianlar, yunonlar, eroniylar, turklar va arablar kabi turli qavm va turli mazxabdagi kishilar istiqomat qilishini, Temur tomonidan turli mamlakatlardan yuz mingga yaqin olimlar, hunarmandlar, me’morlar, san’atkorlar Samarqandga oldirib keltirilganini batafsil hikoya qiladi.¹ Bular hammasi Turkiston va SHarq

¹ Рюи Гонзалес де Клавихо. «Жизнь и деяния великого Темерлана; дневник путешествия по двору Темера в Самарканде 1403-1406, С.136, 245, 282-283.

xalqlari madaniyati va san'atini bir-biriga yaqinlashuviga olib kelgan. Bu fikrni Ali YAzdiy ham tasdiqlaydi.

Amir Temur g'oyasi bo'yicha, yaqin va O'rta SHarqdan to'plangan ilm-fan namoyondalari, sohibi hunarlar, yirik san'atkorlar hisobiga Movarounnahr xalqlarining ijodi yanada yuksalishi, Samarqand esa, O'rta va YAqin SHarq ijodiy kuchlarining markaziga aylanishi-bular hammasi ilm-fan, madaniyat va san'atda yangi yo'nalishlarni vujudga keltirishi kerak edi. Temur ilm-fan va san'at namoyandalarini o'z himoyasiga oladi. Ma'lum sharoitlar yaratadi, ularning tirikchiligi, ijodiy faoliyatlari davlat hisobiga olinadi. Temur tuzuklarida bu tadbirlar o'z ifodasini topgan: «...o'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir, ularning davlatxonaga keltirib, o'rdadan o'rinlar bilgiladim»¹, deyiladi. Bu haqiqat edi. Temur davlati sa'yi harakatlari tufayli XIV asr o'rtalari XV asrda Samarqandda astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tarix kabi fanlar, me'morchilik, adabiyot, san'at, xattotlik va musiqa san'ati gurkirab o'sadi, ko'p olimlar, san'atkorlar etishib chiqadi.

Mana shu buyuk ko'tarilish yuz berganini hisobga olib, akademik N.I.Konrad «*Temuriylar davrida Samarqand va Hirotida qadimiy Markaziy Osiyoda maydonga kelgan unversalizmning buyuk ruhi yangidan yashay boshladi. Bu universalizm... madaniyatning hamma jabhasida haqiqat edi*»² deb yozgandi.

Huroson va Movarounnahrning o'rta asrdagi tarixida XV asr g'oyat murakkab va ziddiyatli davrlardandir. SHunga qaramasdan temuriylar davlati jahonga ajoyib davlat arboblariyu ilm va madaniyatning buyuk siymolarini etkazib berdi. Ikki shahar-Samarqand va Hirot—o'ziga ohanrabodek ilm ahli, shoir, tarixchi, musiqachi hamda musavvirlarni jalb qilar edi. Bu shaharlar hukmdorlari saroylarida Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi nomi bilan mashhur bo'lgan Alovuddin Ibn Muhammad, Ziyouddin Jamshid kabi ilmi nujum namoyondalari, Mirzo Ulug'bek bilan birga, «*Ziji jadidi Ko'ragoniy*» ustida ishlaganlar, Hofizi Abru,

¹ Гулистон журнали, 1967, № 6, -Б. 25.

² Н.И.Конрад. «Запад и Восток», М., 1942, С. 273-278.

Abdurazzoq Samarqandiylar SHohruh va Ulug‘bek davrlari tarixini bitganlar, ko‘plab naqqosh va miniatyurachi musavvirlar nafis va go‘zal asarlar yaratganlar. Ular orasida Kamoliddin Behzod ham bor edi. Buyuk Alisher Navoiy o‘zining «*Majolis un-nafois*» nomli tazkirasida o‘zidan birmuncha avval yashagan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan besh yuzta shoir hamda olimlar haqida ma’lumotlar beradiki, ular o‘z faoliyatlari bilan har ikkala poytaxt madaniy hayoti ravnaqini belgilab bergan edilar.

Ilmiy izlanishlar, madrasalarda falsafiy muhohasalar olib borayotgan allomalar, adabiy anjumanlar, nafis majlislarda qasida va g‘azallar o‘qiyotgan shoirlar ichida Zahiriddin Muhammad Boburning «Bu olam nizo’ va fitnalarga to‘la, kimdir bosqinchilik qildi, mamlakatdan va aholidan nimadur ola ketdi»¹, - deganlari xususida fikr yuritganlar ozmidi?

O‘z davrining ilg‘or davlat arbobi – Navoiy davlatmand shaxs ham bo‘lib, u o‘z tasarrufidagi boyliklari va mablag‘ining ko‘p qismini faqir-muhtojlar ehtiyojiga, ko‘plab jamoat inshootlari va binolari qurilishiga sarf qilgan. U davlatni boshqarishda adolatga tayanishni maslahat bergan va buyuk so‘z san‘atkori sifatida bizga ulkan adabiy meros qoldirgan. Uning «*Xamsa*»si tarkibidagi «*Hayrat ul-abror*» dostoni, «*Mahbub ul-qulub*» nomli nasriy – falsafiy, didaktik asari va, ayniqsa, «*Saddi Iskandariy*»lar shular jumlasidandir.

Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, bu davrda Samarqand va Hirotda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, YAqiniy, Amiriy, Javhariy, Mavlono Toli’, Bisotiy kabi shoirlar turk va fors tillarida ijod qilganlar. SHarq klassik adabiyoti tarjimalariga ham e’tibor berilgan. Badiiy ijodning g‘azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topgan.

Alisher Navoiyning e’tirof etishicha, temuriylar davrida, ayniqsa turk tilidagi adabiyot taraqqiyotiga jiddiy e’tibor berilgan. CHunonchi, Navoiy turk tilida yozuvchi shoirlar haqida to‘xtab: «... *Temur ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi*

¹ Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома».

SHohrux Sulton zamonining oxirig'acha turk tili bila sho'aro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va axfodidin ham xushtab' salotini Zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Amiriy va Gadoiydeklar»

Bu davrda tasviriy san'at-miniatyura san'ati va monumental rassomlikda ham ko'tarilish yuz bergan. Bir talay miniatyura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha etib kelgan tasviriy san'at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san'atning o'ziga xos uslublari shakllangani, hayotni haqqoniy tasvirlash tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi.

Bu davrda Pir Ahmad G'iyosiddin va Xo'ja Abdulhay Sulton Uvays, usto SHamsiddin, Do'st Muhammad, Jongir Burxoniy, Mansur, SHoh Muzaffar, Mavloni SHaxobiddin Abdullo, Mavloni Zahiriddin Azhor, Pirsaid Ahmad Tabriziy, Bobonaqqosh kabi juda ko'p musavvirilar ijod qilganlar.

Samarqandning Bog'i SHamolidagi Sohibqiron qurdirgan saroy rasmlarini chizgan Pirsaid Ahmadning tengi yo'q musavvir bo'lganini aytib, *uning san'atidan hatto SHarqning buyuk rassomi Moniy ham uyalar edi, deb yozadilar. Zahiriddin Bobur esa Dilkusho bog'i saroyidagi rasmlarda Temurning Hindiston safari tasvirlanganini hikoya qiladi.*¹

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshidagi gavjum hayot Samarqandda musiqa, raqs va tomosha san'atining jonlanishiga olib kelgani turli yozma manbalarda va miniatyuralarda o'z aksini topgan.

Temuriylar hukmronligi davrida Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda xalq sayillari va tomoshalar ommaviy tus olgani va ularda keng omma qatnashgani haqida SHarafitdin Ali YAzdiy, Ibn Arabshoh, Klavixo kabi o'sha davrning mashhur muarrixlari qimmatli ma'lumotlar beradilar. Klavixo Samarqandda o'tgan shunday sayil va tomoshalarning guvohi bo'lgan: *ular yashagan chodir benihoya qimmatbaho shohidan yasalib, unda to'rt oyoqli oltin stol qo'yilgan, har bir stolga sharob qo'yilgan oltin ko'zachalar ham qo'yilgan, zumrad va qimmatbaho toshlar*

¹ Бобурнома. Т., 1958, -Б. 60.

bilan ziynatlangan, ko'zachalarning tub tomoni esa yoqutdan ishlangan. Har bir stolda ichi dur, atrofi yoqut bilan naqshlangan oltin qadahlar qo'yilgan.

"...Imperator o'tirgan xiyobon yonida juda ko'p sozanda, hofizlar, raqqos va raqqosalar o'tirmoqda, musiqa sadolari ko'kni ko'tarmoqda edi... SHu kuni turli-tuman tomoshalar ko'rsatildi, har bir san'atkor qiziq o'yinlar ko'rsatib, xalqni xursand qildi... Podsho ixtiyoridagi fillarni qizil, zangor va turli ranglarda bo'yab, ularning tepasida katta kajava (estrada) o'rnatilib, raqqos va raqqosalar o'yin ko'rsatar edilar. Ularning o'yini tomoshabin qiyqiriqlariga sabab bo'lar, o'zining serzavqligi bilan kishini hayajonga solar edi"¹.

Klavixoning 1404 yilda Temur saroyida aktyorlar tomonidan o'ynalgan va shaxsan o'zi tomosha qilgan tomosha haqidagi ma'lumoti ham o'sha zamon sahna san'atining badiiy kamolot darajasini aniqlab olishimizda favqulodda ahamiyatga ega².

Tarixdan ma'lumki, G'arb va SHarq davlatchiligida notiqlik san'ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davlatida ham notiqlik san'ati-so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan. Samarqand va Hirotda notiqlik maktablari bo'lib, ularda Mavlono Ershod, Qozi Xishiy, Ibrohim Balxiy, Hotam asal ustozlik qilganlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur ham tengi yo'q notiq bo'lgan. Ibn-Arabshoh Temurning notiqligiga katta baho bergan. Barbara Brey esa o'zining «Ibn Xoldun» sarlavhali maqolasida Temur nutq so'zlaganda «...qarashlari o'tli, yoniq, ovozi yoqimli, jarangdordir» deb ko'rsatgan, Jahongir turli hududlarda 30 dan ortiq muhim kengash va qurultoylar o'tkazgan³.

Bunday majlislarda davlat arboblari, qo'mondonlar, olim va fuzalolar, san'at va adabiyot ahllari qatnashganlar.

¹ Клавиho. -Б. 282-283.

² Клавиho. -Б. 136

³ Темур тузуклари, -Б. 54.

SHohruh Mirzo, Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur ham SHarq notiqligining mashhur namoyondalaridan bo‘lganlar.

Movarounnahr madaniyati, ilm-fani, ayniqsa, Ulug‘bek zamonida yana yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. XV asrning yigirmanchi yillaridayoq Ulug‘bek Movarounnahr, O‘rta va YAqin SHarqda buyuk olim va madaniyat homiysi sifatida tanildi. Natijada ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san‘ati yana taraqqiy topib, Samarqand nafis san‘at markaziga aylandi.

Ulug‘bek she‘riyat va san‘at bilan ham qiziqar, mushoiralarda qatnashar, san‘at va adabiyot taraqqiyotiga, uning namoyandalariga ko‘maklashar edi. Alisher Navoiy «Majolisun-nafois»da, Ulug‘bek adiblarning homiysigina emas, she‘riyatning qadriga etuvchi edi, o‘zi ham she‘r yozar edi, deb ko‘rsatgan.¹ Mashhur musiqa olimi hofiz Darvish Ali CHangiyning qalamiga mansub «Tuxfat us surur»da aytilishicha, Ulug‘bek Mirzoning o‘zi ham musiqa olimlaridan sanalgan.

Ulug‘bek zamonida «Bog‘i maydon»da «chxil ustun», «chinni xona» kabi go‘zal qasrlar qo‘rilib, unda ilmiy munozaralardan so‘ng mushoiralalar bo‘lib, mamlakatning turli tomonlaridan kelgan sozanda, hofizlar o‘z san‘atlarini namoyish qilar ekanlar. Tarixiy manbalarda zikr qilinishicha, bu davr san‘atkorlari safida yallachi ayollar va raqqosalar ham kam bo‘lmagan. Bu fikrni Ulug‘bek davrini o‘rgangan mashhur olim V.V.Bartold ham tasdiqlaydi.²

Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng Xuroson, SHarqiy va SHimoliy Eron hududida Temuriylarning so‘ngi yirik davlati hukmronlik qila boshlagan edi. Poytaxti Hirot shahri bo‘lgan bu davlat boshida sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy turdilar. Bu davrda Hirot O‘rta SHarqning katta va obod madaniy markazlaridan biri bo‘lib, unga juda ko‘p fan, adabiyot, san‘at ahllari to‘plangan

¹ А.Навоий. Мажолисун-нафоис. -Б. 50.

² В.В.Бартольд. Улугбек и его время. Петербург. 1918, Записки Российской АН по истории илологическому отделу, т. XIII, № 5, С. 94-95.

va beqiyos iste'dodlar etishib chiqqan edi. Bu davr adabiyoti ravnaqida Sayfiy, Safoyiy, Xo'jandiy, Ahmadiy, Muhammad Solih, Vosifiy, Xondamir, kabi yuzlab so'z ustalari adolat, vafo, sadoqat, muruvvat va sof muhabbat haqida kuyladilar. Bu oqim va ko'tarilish hammadan avval Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro ijodi va faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Ular ma'rifiy davlat yaratishdagi Amir Temur an'anasini davom etdirish bilan bir qatorda, o'zlarining butun ongli hayotlarini, ijod va tafakkurlarini ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotiga bag'ishladilar. Navoiy butun Movarounnahr, Xuroson, Xorazmda san'at va adabiyot homiysi bo'lib tanildi va uni yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Navoiyning mana shu faoliyatini Bobur quyidagicha ta'riflaydi: «Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaski, hargiz paydo bo'lmish bo'lgay»¹.

Hirotda tasviriy san'ati o'sha davr hayotini haqqoniy tasvirlash bilan ravnaq topgan. XV-XVI asrlarda Hirotda tasviriy san'atning ulug' namoyandalari Behzod, Miroq naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzaxxib, Xo'ja Muhammad naqqosh va shoh Muzaffar kabi iste'dodli musavvirlar ijod qilganlar. Hirotda Behzod o'z maktabini tashkil qildikim, bu keyingi asrlar tasviriy san'atning yuksak cho'qqilarga ko'tarilishiga olib keldi.

Hirotda rassomlari ijodida mavzu va mazmunning rang-barangligini ko'rish mumkin. Ular ichida teatr, musiqa, raqs san'ati aks etdirilgan suratlar ham kam emas. Bu esa Hirotda musiqa, raqs, teatr san'ati keng taraqqiy topgani va sonsiz-sanoqsiz ustozlar ijod qilganlaridan darak beradi. Darhaqiqat, manbalarning ko'rsatishicha, bu vaqtda Hirotda ko'plab musiqa risolalari, musiqa tarixi va nazariyasiga oid asarlar maydonga kelgan.

Hirotda musiqa madaniyati haqida Bobur ma'lumotlari ham katta qimmatga ega. Uning yozishicha, dong'i chiqqan ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvaridiy, Husayn O'diy, Darvesh bek, YUsuf O'g'loqiy (qubiz), G'ulom

¹ Бобурнома. Т., 1948, -Б. 112

SHodiy, SHayxi Noyi, SHayx Kuli (g'ijjak)lar Navoiyning xomiyligi orqasida o'z san'atlari bilan shuhrat topganlar, juda ko'p naqsh va peshrovlar yaratganlar.

Bobur 1506-1507 yilda Hirotda bo'lganida «Bog'i Safid»dagi Abulqosim Bobur tomonidan qurilgan «tarabxonada» berilgan bazmda sozandalardan Xo'ja hofiz Mirjon Samarqandiylar qatnashganini yozadi.²

Professor A.Fitrat ham XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Hirotda ijod qilgan mashhur sozandalardan «ishrat» ismli cholg'uni chaladigan ustod Abulqosim va Husayn Boyqaroning musiqiy muallimi, andijonlik Mavlono YUsof Badiyi, tanburda bir tor ortdirgan Mahmud SHayboniy, Abduqodir Marg'iloniy, Xabibullayi CHangiy, Muharramiy CHangiy, Ali shunqor, Mextar SHamsitdin nog'orachi, Mextar Imom nog'orachi, Alijon kabi o'sha zamon musiqiy ustalarining nomini sanab o'tgan.¹

Bobur ma'lumotiga ko'ra, Hirotning mashhur raqqoslaridan Said Badrning o'zi kashf etgan «Hirotiy» nomli o'yini shuhrat topgan. Texron muzeyida saqlanayotgan bir miniatyurada Husayn Boyqaro saroyidagi bazmlardan bir lavha berilgan. Unda saroyning bir zalida o'n ikki raqqosa davra aylanib zavq va jilva bilan raqs ijro etmoqdalar, qo'llari juda nozik uchmoqda, mayda qadam tashlab, barmoq uchida o'ynamoqdalar. Raqqoslarning kiyimlari maxsus tikilgan, bir xilda go'zal. Saroyning ikkinchi qavatidan joy olgan sozandalar o'yinga jo'r bo'lmoqda. Hirotda raqs san'atini tasvirlovchi bunday miniatyuralar juda ko'p.

Hirotda ham xalq sayillari, tomoshalar muttasil o'tib turgan.

Abdurazzoq Samarqandiy 1412 yilda Hirotda Xitoy elchilari kelishi SHohruh Mirzo tomonidan tashkil qilingan sayil haqida batafsil ma'lumot bergan.²

Navoiy o'sha zamonning mashhur qiziqchilaridan G'iyosidin, Abdulla Devona, Xo'ja Dehdor kabilalarni tilga oladi.

² Ўша асар, -Б. 228-229 .

¹ А.Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси. 62-бет.

² Абдураззоқ Самарқандий. «Матлаъас саадайн ва мажъмаул бахрайн» Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институти, Қўлёзма, инв. 153.

Hiroat qiziqlaridan yana birini Bobur Mirzo ham eslab o‘tadi. «CHinor bog‘ining etagiga solingan suratxonaning sharqi-janub sari yonida kichikroq oq uy qurilib edi. Gohi unda o‘lturur erdim, anda majlis bo‘ldi, so‘ngra G‘iyos masxara keldi, necha qatla majlisdan qutoiba tariqa buyurildikim, ixroj qildilar. Oxir shaloyi bo‘lib, masxaraliq bila majlisg‘a yo‘l topdi».

SHunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Temur va temuriylar davlati davrida madaniyat, ilm-fan, me‘morchilik bilan bir qatorda, o‘zbek xalqi san‘atining hamma turlari ravnaq topdi. Uning namoyandalari o‘z yuksak ijodlari bilan jahon madaniyati va san‘ati xazinasiga katta hissa qo‘shdilar

II.3. Amir Temur va temuriylar davrida badiiy adabiyot ravnaqi

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining to‘laqonli mazmuni, manzarasi va ko‘lami o‘sha zamonda har taraflama gurkirab ravnaq topgan badiiy tafakkur samarasi – badiiy adabiyotda yaqqol namoyon bo‘ldi. Negaki Vatanimiz tarixining mana shu chinakam Uyg‘onish davrida o‘zlarining serqirra, serjil va ijodi bilan yuksak insonparvarlik, umumbashariy g‘oyalarni tarannum etgan ko‘plab zabardast adibu shoirlar, daho ijodkorlar etishib chiqdilar. Eng muhimi shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an‘anaviy bayroqdor bo‘lib kelgan fors – tojik adabiyoti bilan yonma – yon turkiy – o‘zbek adabiyoti ham rivojlanib, uning namoyandalari safi ko‘payib bordi. Tarjima adabiyot vujudga keldi. Badiiy adabiyotning o‘sishi bilan uzviy bog‘langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, nodir asarlar yaratildi¹.

№	XIV – XV asrlarda badiiy adabiyot sohasida ijod qilgan shoirlar va adiblar	Asarlarining nomi
---	--	-------------------

¹ O‘zbekiston tarixi: o‘quv qo‘llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma‘sul muharrir S. Inoyatov. – T.: “Sharq”, 2013. – B. 243.

1	Qutb Xorazmiy (XIV asr – ?) — shoir, tarjimon	«Xusrav va SHirin» dostoni. Sig‘noq shahrida yozilgan (1330 – 40)
2	Sayfi Saroyi (1321 – 1398) — shoir, tarjimon	Bizgacha uning 10 dan ortiq g‘azal, qasida, qit‘a, ruboiy, «Suhayl va Guldursun» dostoni, «Gulistoni bit-turkiy» asari etib kelgan. «Sindbodnoma»ni o‘zbek tiliga qilgan tarjimasi saqlanmagan. SHE’rlarida vatanparvarlik, odamiylik, inson qadr-qimmatini, do‘stlik, muhabbat motivlari bilan birga ijtimoiy mavzu ham kuylangan («Ko‘ngul», «Topilmas», «Erur» va boshqalar)
3	Haydar Xorazmiy (XIV asrning oxiri – XV asrning 1– yarmi) — shoir. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri	Turkiy va forsiyda she’rlar yozgan, devon tuzgan. Nizomiy Ganjaviynint «Mahzan ul – asror» asariga «Gulshan ul – asror» nomi bilan turkiy tilda javob yozib (1409 –1414), Sulton Iskandarga bag‘ishlagan. Asarning hajmi 639 baytdan iborat. YAqin-yaqingacha «Gul va Navro‘z» dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi
4	Durbek (XIV asr oxiri – XV asr boshi) — o‘zbek shoiri	Bizgacha uning «YUsuf va Zulayho» dostonigina etib kelgan. Durbekning «YUsuf va Zulayho» dostoni 1409 yilda yozilgan. Doston asosini SHarqda mashhur YUsuf va Zulayho haqidagi rivoyat tashkil etgan
5	Amiriy, YUsuf Amiriy (XV asr) — shoir	Boysunqur Mirzo himoyasida yashagan. Turkiy va forsiyda ijod qilgan. Amiriyning turkiydagi bir devoni hamda «Dahnoma», «CHog‘ir va Bang munozarasi» asarlari etib kelgan. Forsiydagi asarlaridan 2 baytgina ma’lum: biri «Majolis un-nafois», ikkinchisi YAqiniyning «O‘q va yoy munozarasi»da saqlangan. Amiriy «Dahnoma» (1429) asari bilan noma janrini rivojlantirdi

6	<p style="text-align: center;">YAqiniy (XV asrning 1 – yarmi) — shoir</p>	<p>YAqiniyning bizgacha faqat «O‘q va YOy» asari saqlanib qolgan. Bu asar YUsuf Amiriy, Ahmadiy an‘analarining davomi sifatida maydonga kelgan</p>
7	<p style="text-align: center;">Gadoiy (1403G‘04 – XV asr oxiri) — shoir. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri</p>	<p>Gadoiy – taxallusi bo‘lib asl ismi hozircha noma‘lum. U g‘azal janri, aruz ilmi va she‘riyat qoidalarini yaxshi bilgan. Asosan turkiy (o‘zbek) va qisman fors tilida g‘azal, qit‘a, tuyuq, mustazod, qasidalar yaratgan. Gadoiy o‘z ijodi bilan XV asr o‘zbek mumtoz she‘riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan. Xususan, uning g‘azallari mazmunan hayotiyiligi, badiiy va shaklan barkamolligi bilan ajralib turadi. Uning she‘rlari aruzning xalq qo‘shiqlariga yaqin ramal, hazaj bahrlarida yozilgan. Tili xalqona sodda, vazni engil, shux va uynoki. Gadoiyning XV asr 2 – yarmi — XVI asr boshlarida noma‘lum kotib tomonidan kuchirilgan «Devoni Gado» asari bor. Unga 2974 misradan iborat 230 g‘azal, 1 mustazod, 1 qasida, 5 qit‘a, tuyuq kirgan. «Devon»dagi qasida temuriy shahzoda Muhammad Jahongir Mirzoning o‘g‘li Halil Sulton madhiga bag‘ishlangan. Gadoiyning forsiydagi she‘rlari Fahri Hiraviyning «Radoyif ul-ash‘or» tazkirasiga kiritilgan</p>
8	<p style="text-align: center;">Atoiy (XV asr) — shoir</p>	<p>YAssaviy avlodidan. G‘azalnavis — lirik shoir. Uning lirikasida xalq iboralari, ta‘birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so‘zlar ko‘p. G‘azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan. Vazni engil, misralari qisqa, so‘zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. SHuning uchun ham uning she‘rlari xalq qo‘shiqlariga aylanib ketgan. Atoiy tajohuli orifona, laf va nashr kabi tasvir vosita va usullari ham yaratgan. SHoir ijodi bizgacha to‘la etib kelmagan. Devonining taxm. XVI asrda ko‘chirilgan, 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi</p>

9	<p style="text-align: center;">Sakkokiy</p> <p>(XV asr) — shoir. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri</p>	<p>Sakkokiy – shoirning taxallusi, uning asl ismi ma’lum emas. «Sakkok» (pichoqchi) so‘zidan, shoir hunarmand oilada tug‘ilgan degan fikr taxmin qilish mumkin. U o‘zbek adabiyotida qasida janriga asos solgan shoirlardan. Xoja Muhammad Porso, Xalil Sulton, Ulug‘bek va Arslon Xoja Tarxonlarga bag‘ishlab qasidalar yozgan. Qasidalaridan birida Ulug‘bekni xalqning mehribon hukmdori, ma’rifatparvar va buyuk olim sifatida ulug‘laydi. SHoir o‘zbek dunyoviy lirikasini ham mazmun, ham shakl jihatdan boyitgan. SHoir g‘azallari va qasidaları devon qilib to‘plangan bo‘lsa-da, to‘liq nusxasi bizgacha etib kelmagan. Sakkokiy devoni Londonda, Britaniya muzeyida va O‘zbekiston FA SHarqshunoslik institutida (inv. № 7685) saqlanadi</p>
10	<p style="text-align: center;">Lutfiy, Mavlono Lutfiy</p> <p>(1366 – 1465) — O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri</p>	<p>O‘z zamonining «Malik ul – kalomi», ya’ni «So‘z podshosi». Lutfiy – turkiy she’riyatda maktab yaratgan san’atkor. Navoiyga qadar o‘zbek she’riyatida Lutfiy darajasiga etadigan shoir bo‘lmagan. U birgina turkiy tilida asarlar yaratib qolmadi, balki fors tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo‘lishni targ‘ib qilish, ilm va san’atni sevish kabi fikrlar kattajoy olgan.</p> <p>Bizgacha shoirning XVI – XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan turkiy devonining 33 qo‘lyozma nusxasi etib kelgan bo‘lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo‘jaevning aniqlashi bo‘yicha, Lutfiy qalamiga mansub mavjud she’rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g‘azal janrida yozilgan</p>

Bu davrning badiiy adabiyoti, xususan o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan ushbu shoirlarning ilmiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi.

Ulug‘ o‘zbek shoiri, mumtoz she‘riyatimiz sultoni Alisher Navoiyning katta ijodi ham shu tarixiy davr bilan bog‘liqdir. Alisher Navoiy, Navoiy (taxalluslari; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) (1441 yil 9 fevral – Hirot – 1501 yil 3 yanvar) — buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. U 10—12 yoshlaridan she‘r yoza boshlagan. 15 yoshida esa shoir sifatida keng tanilgan. She‘rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o‘rta asrdagi Uyg‘onish davrining boshqa ulug‘ zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. U o‘z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiiste‘mol qilishlarini va ta‘magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o‘z himoyasiga oldi. Sulton Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida Alisher Navoiyni o‘z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Bu davrda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir (1487 yilgacha) Alisher Navoiy madaniyat va san‘atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to‘g‘ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo‘lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e‘tibor berish oldingi uringa chiqa boshladi. Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotida va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta‘mirlattirgan. Ular orasida Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «SHifoiya» tibgohi, Qur‘on tilovat qiluvchilarga mo‘ljallangan «Dorul-huffoz»

binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor¹.

Alisher Navoiyga Husayn Boyqaroning xurmati doimo baland bo'lgan. Xususan, Navoiyga bir nechta yuksak lavozimlarni taklif qilingan. Ammo Alisher Navoiy rozi bo'lmagach, unga «Muqarrabi hazrati sultoniyy» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan rasmiy unvon beriladi. Bu bilan u davlatning hamma ishlariga aralasha olar va podshoh bilan ko'rishish imkoniga ham ega bo'lar edi. Bundan ko'rinib turibdiki u badiiy ijod bilan qatorda davlat ishlaridan yiroqda bo'lmagan.

Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bunda yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtparvarlik va erksevarlik g'oyalari butun tarovati bilan namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin: 1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy – filologik, nasriy va tarixiy asarlari².

№	Alisher Navoiyning ijod gulshani	
1	«Hiloliya» qasidasi	O'zbek tilidagi dastlabki yirik asarlaridan biri. 1469 yil 14 aprel kuni, ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy do'sti Husayn Boyqaroni taxtga chiqishi bilan qutlab, unga yangi yozgan ushbu qasidasini taqdim etgan
2	«Tuhfat ul-afkor» qasidasi	1476 yilda yozilgan forsiy tildagi birinchi yirik asari bo'lib, Jomiyga bag'ishlangan
3		1470 yillarning oxirlarida o'zbek tilida yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52

¹ O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma'sul muharrir S. Inoyatov. – T.: "Sharq", 2013. – B. 244-246.

² Ўша асар, – В. 246.

	<p>«Badoe’ ul-bi-doya» («Badiiylik ibtidosi»)</p> <p>Devon qo‘lyozmasining ikki sahifasi (XVI asr)</p>	<p>muammo, 46 qit’a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug‘z, 3 mustazod, 5 muhammas, 3 tarje’band, 2 musaddas bo‘lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan – kam o‘zbek shoiriga nasib bo‘lgan</p>
4	<p>«Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»)</p>	<p>O‘zbekcha she‘rlar asosida 1480 yillarning oxirida tuzgan devoni</p>
5	<p>«CHixl hadis» («Qirq hadis» yoki «Arbain»)</p>	<p>1841 – 82 yillarda yozilgan. Asarda Muhammad payg‘ambar(sav) ning qirq hadisi to‘rtlik bilan she‘riy ifodalab berilgan</p>
6	<p>«Mufradot» («Risolai muammo»)</p>	<p>Adabiyot nazariyasiga oid bu asari forsiy tilda yozilgan, muammo yozish va echish qoidalarini ilmiy izohlashga bag‘ishlangan. 1485 yilda yozilgan</p>
7	<p>«Xamsa»</p>	<p>1483 – 1485 yillarda yozilgan bo‘lib, asar besh dostonni o‘z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ «Hayrat ul-abror» («YAxshilar hayrati») ➤ «Farhod va SHirin» ➤ «Layli va Majnun» ➤ «Sabbayi Sayyor» («Etti sayyora») ➤ «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») <p>Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o‘zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot</p>

		etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik XV asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi
8	«Nazm ul-javohir»	1485 yilda yozilgan bu asarda birinchi xalifalardan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboyi tarona (to'rt misrasi ham qofiyalangan) shaklida bayon etilgan
9	«Holoti Sayyid Hasan Ardasher» «Xamsat ul-mutahayyirin» «Holoti Pahlavon Muhammad»	Navoiy o'zi uchun qadrdon bo'lgan Sayyid Hasan Ardasher (1488 yilda vafot etgan), Jomiy (1492 yil yilda vafot etgan), olim va shoir Pahlavon Muhammad (1493 yilda vafot etgan) lar xotirasini abadiylashtirish, ularga o'z hurmatini izhor etish uchun bu risolalarini yozgan edi
10	«Tarixi muluki Ajam» («Ajam podshohlari tarixi»)	1489 yilda yozilgan
11	«Majolis un-nafois» («Nafislar majmuasi»)	Adabiyotshunoslik sohasidagi Alisher Navoiyning tazkisasi (1490 – 91; 1497 – 98 yillarda qayta ishlangan). Turkiy tazkirachilikning ilk namunasi. Asarda XV asrda Xuroson va qo'shni mamlakatlarda yashagan shoir, yozuvchi va olimlar (jami 459 kishi) ijodiga oid qisqa ma'lumotlar berilgan. Ma'lumotlar yillar, geografik o'rinlar hamda sulolaviy tartiblarga tayanib joylashtirilgan. 8 kism – «majlis»dan iborat
12	«Mezon ul-avzon» («Vaznlari o'lchovi»)	O'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aniqrog'i, aruz vazni qoidalarini haqida ilmiy qo'llanmasi (1490 – 1492)

13	«Munshaot» («Maktublar»)	Turkiy tildagi maktublar to‘plamining majmuasi, 1494 yilda tuzilgan
14	«Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasasi»)	Alisher Navoiy 1491 – 92 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan hamma she’rlaridan yangi, yig‘ma devon tuzishga kirishdi va bu ish 1498 – 99 yilda nihoyasiga etdi. Devonning umumiy nomi «Xazoyin ul-maoniy» bo‘lib, 4 qismdan iborat bo‘lganligi uchun «CHor devon» deb ham atalgan. Devonning birinchi qismiga «G‘aroyib us-sigar» («Bolalik g‘aroyibotlari»), ikkinchi qismiga «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»), uchinchi qismiga «Badoe’ ul-vasat» («O‘rta yosh badialari») va to‘rtinchi qismiga «Favoyid ul-kibor» («Keksalik foydalari») degan nomlar berildi
15	«Devoni Foni» («Foni devoni»)	1490 yillarning o‘rtalarida, Eron olimi YUsof SHeroziy taxminicha, 1495 – 1500 yillar orasida Alisher Navoiy forsiy she’rlarini devon holiga keltirilgan va bu devon shu nom bilan mashhur bo‘lgan
16	«Sittai zaruriya» («Olti zarurat»)	Fors tilida. Forsiy kasidalar to‘plami. To‘plamiga 6 qasida kiritilgan bo‘lib, ularni Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidavislar ta’sirida yaratgan

17	«Fusuli arbaa» («To‘rt fasl»)	Fors tilida. Forsiy kasidaları to‘plami. To‘plamiga 4 qasidasi kiritilgan bo‘lib, ulardan «Bahor» 57 baytdan, «Saron» 71 baytdan, «Xazon» 33 baytdan, «Day» 70 baytdan iborat. Ularda yilning 4 fasli — bahor, yoz, kuz va qish, bu fasllardan har birining o‘ziga xos go‘zalligi zavq bilan tasvirlangan va to‘rttalovi ham zamon podshohi — Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi dust va yaxshi inson sifatida vasf etishga bag‘ishlangan
18	«Lison ut-tayr» («Qushlar tili»)	Falsafiy-majoziy xarakterdagi Navoiyning so‘nggi dostoni 1498 – 99 yillarda yaratilgan. Bu asarini shoir «Foniy» taxallusi bilan yozgan
19	«Muhokamat ul-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi» yoki «Ikki til tadqiqi»)	Tilshunoslik sohasidagi ilmiy asari. 1499 yilda yozilgan
20	«Mahbubul-qulub» («Qalblar sevgani»)	O‘zbek badiiy nasrining ilk namunasi – falsafiy-didaktik asar. SHoirning so‘nggi buyuk asarlaridan biri bo‘lib, 1500 yil yozilgan. 3 qismdan iborat
21	«Vaqfiya»	Alisher Navoiy eng muhim asarlaridan biri «Vaqfiya» bo‘lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o‘zi kurgan imoratlariga vaqfi, ya’ni rasmiy hujjatidek ko‘rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o‘rni, uning tarjimai holi, ijtimoiy – siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik bilan yoritilgan. SHuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Alisher Navoiy nasrining ajoyib namunasi sifatida qaraladi

SHu bilan birga, XIV – XV asrlarda fors-tojik adabiyoti ham an’anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Bu adabiyot dovrug‘ini baland ko‘targan, yuksak

badiiy ijod namunalarini yaratgan Kamol Xo‘jandiy (taxallusi; ismi Kamoliddin Mas’ud, 1321 – 1401), Xofiz SHeroziy (taxalluslari; asl ism – sharifi SHamsuddin Muhammad ibn Muhammad, 1326 – 1389), Abdurahmon Jomiy (taxallusi; asl ism – sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad, 1414 – 1492), Binoiy (taxallusi; asl ismi Kamoliddin Ali Muhammad Sabz, 1453 – 1512), Hiloliy (taxallusi; to‘liq ism – sharifi Mavlono Badriddin Hiloliy CHig‘atoiy, taxm. XV asrning 70-yillari – 1529) singari daho so‘z san’atkorlari nomini alohida tilga olib o‘tish joizdir. Ularning yuksak badiiy tafakkur ila yaratilgan umrboqiy asarlari, mana, necha asrlardirki, tarix va davrlar sinovidan o‘tib, qanchalab avlodlar ongi, shuurini yolqinlantirib kelmoqda.

Xulosa

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bugungi o‘zbek milliy davlatchiligini bunyod etishda ham, olis o‘tmishni baholashda ham, porloq istiqbolni belgilashda ham Amir Temur siymosi, uning tafakkuri, siyosati, boshqaruvdagi taktika va strategiyasiga hurmat bilan qaragan. Ayni paytda Amir Temur shaxsi va uning boy merosini, ulkan maktabini bugungi kunning muqaddas darsxonasi deb biladi. SHu ma’noda uning Toshkentda Amir Temur haykali ochilishiga bag‘ishlangan tantanalari marosimda aytgan ushbu so‘zlarini yana bir karra eslab o‘rinlidir:

«Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha’n-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo‘lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e’tiqod, milliy g‘urur tuyg‘usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma’naviy bisotga ega bo‘lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo‘lmog‘i shartdir.

Mamlakatimizning markazida, qadimiy va go‘zal poytaxtimiz-jonajon Toshkentimiz o‘rtasida qad ko‘targan ulug‘ bobomiz siymosi xalqimizga faxr va g‘urur baxsh etmog‘i muqarrar!

Bu siymo mard, tanti, halol va g‘ayratli xalqimizni birlashtirishda, jiplashtirishda, iymon-oqibatli bo‘lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag‘ishlaydi»¹.

Amir Temurning tarixiy xizmati, uning insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta’siri faqat shular bilan kifoyalanmaydi. Uning, aytish mumkinki, boshqaruvdagi taktika va strategiyasi, milliy xavfsizlik va

¹ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т. Ўзбекистон, 5-жилд, - Б.190-192

mudofaa, adolatli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish borasidagi tajribalari olamshumul ahamiyat kasb etgan. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur nomi va uning davri bizning tariximizdan butunlay o'chirib tashlangan bir paytda Temur harbiy maktabi tajribalari, taktika va strategiyasi eng ilg'or va rivojlangan davlatlar qurolli kuchlari tizimlarida muhim qo'llanma sifatida o'rganib kelindi.

Akademik Bo'riboy Ahmedovning fikricha, birinchidan, sohibqiron mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka, mayda guruhlarga barham berib, el-yurtni yagona tug' ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Natijada ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, fan va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratildi.

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va mamlakatlarning ozod bo'lishiga yordam berdi.

Uchinchidan, Movarounnahrni yuksak dehqonchilik makoniga, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi.

To'rtinchidan, sohibqironning sa'y-harakati bilan ko'plab shahar va qishloqlar obod etildi, SHahrisabz, Samarqand, Buxoro, Turkiston, Toshkent singari shaharlarda madrasalar, karvonsaroylar, maqbaralar, bog'lar va bozorlar barpo etdirdiki, bular o'zbek milliy me'morchiligini yuksak mavqega ko'tardi, uning o'ziga xos maktabiga asos soldi¹.

Mustaqillik davri tom ma'noda hazrati Temurning qayta tug'ilish davri bo'ldi. U bobokalonimiz vasiyatlarining ro'yobga chiqayotgani bilan alohida qimmatlidir. Amir Temurga munosabat, uning tarixiy xizmatini munosib baholash va izzatini o'rniga qo'yish xususida gapirar ekanmiz, bu masala Prezident Islom Karimovga nima uchun kerak, degan savol tug'iladi.

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida ongu shuurimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularimizni qayta tiklash, millatni

¹ Б.Ахмедов. Амир Темур дарслири... – Б. 9

millat, davlatni davlat qilish uchun, tafakkur va tushunchalarimizdagi parokandalikka barham berib, milliy zamin va milliy ruh haqqi-hurmati uchun birlashimiz kerak. Uning beqiyos faoliyati va o‘lmas merosi xalqimizning milliy tuyg‘usini, buyuk va jahonshumul an‘analariga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g‘ururini, milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir temur esa shu ko‘hna tarixning buyuk cho‘qqisidir.

Uchinchidan, farzandlarimizni, kelgusi avlodni ulug‘ ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o‘rgatish, ularni ana shu buyuk an‘analarning munosibdavomchilari qilib tarbiyalash, milliy g‘ururini yuksaltirish uchun kerak. SHu ma’noda sohibqironning: «Aziz-avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlug‘ qadamjolarini ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz deb bilur edim», degan gaplari bugungi kunda yurtimizda ulug‘ ajdodlarga, olimu fozil bobolarimizga munosabatimizning tarixiy uyg‘unligini ko‘rsatib turibti.

To‘rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik, huquqiy, qudratli O‘zbekiston davlatini barpo etish uchun, «O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat» degan g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun kerak. YAngi jamiyat, yangi hayot, yangi tafakkur, qolaversa, butun davlatchilik asoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o‘zbek xalqiga tog‘day tayanch bo‘lib xizmat qiladi, uning olijanob ishlariga beqiyos safarbarlik ruhi baxsh etadi.

Beshinchidan, bu benazir qadriyat mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak. Darhaqiqat, hazrati Temur: «*Kuch-qudratimizga shakshubhangiz bo‘lsa, biz qurgan binolarga boqing*», degan edi. Bugun esa, o‘tish davrining eng qiyin, ziddiyatli va murakkab bir paytida O‘zbekiston ulkan qurilish maydoniga aylanganini ulug‘ bobomiz boshlagan an‘analarning davomi, ezgu orzularining ro‘yobi, deyish mumkin. Keyingi yillarda yuzlab yangi binolar, zavod

va fabrikalar, yo‘llar va ko‘priklar, hammom va choyxonalar, shifoxona va oshxonalar, ko‘rkam maishiy xizmat uylari, milliy shakl va mazmunga ega bozorlar qurilganini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu ishlarning barchasi «*Xon bo‘lsang-da bog‘ yarat, gadoy bo‘lsang-da bog‘ yarat, bir kun mevasini tatirsan*», degan xalq maqolini yodga soladi. Keyingi besh yilda yaratilgan bog‘-rog‘lar, daraxtzorlar va o‘rmonlar bir necha ming gektarni tashkil etadi. Mamlakatimiz hududida joylashgan o‘nlab aziz zotlar, islom dinining ulkan ulamolari va boshqa tarixiy namoyandalarning maqbaralari qayta tiklandi, ta‘mirlandi. Dunyo xalqlarining diqqatini tortadigan mo‘‘jizaviy ziyoratgohlarga aylantirildi.

Umuman olganda, Amir Temur davlatchiligi, uning boshqaruvdagi o‘ziga xos tamoyillari bugungi o‘zbek milliy davlatchiligining tamoyillariga asos bo‘lmoqda, desak yanglishmaymiz. Buni nimalarda ko‘rish mumkin?

Eng avvalo, sohibqironning: «*Barcha ishlarimning to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushii esa qilich bilan bajo keltirdim*», degan dono o‘g‘itlari Prezident Islom Karimovning dunyo muammolarini va ichki masalalarni hamjihatlik, oshkora muzokoralar yo‘li bilan hal etish tarafdori sifatida amalga oshirayotgan faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. Ular o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik bor. Jumladan, Prezidentimizning xalqaro masalalarni hal etishda «*tomonlarning bir-biriga yon berish va murosa yo‘li bilan bir-biriga yaqinlashuvi, har bir mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi, barcha manfaatdor tomonlarning muzokara jarayonida ishtirok etishi, qay shaklda bo‘lmasin, tashqaridan ta‘sir o‘tkazish va aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik*» tamoyillari Amir Temurning mashvaratu kengash vositasida siyosat yuritishini eslatadi.

Prezidentning mamlakat Parlamenti, Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishlari, viloyat kengashlari sessiyalarida ishtirok etishi, mamlakat hayotining eng muhim dolzarb masalalari yuzidan ochiq fikr almashuvi temurona demokratiyaning yangi shakldagi ko‘rinishidir.

Ikkinchida, Amir Temurning: «*CHaqaloqlarni yig'latmangiz, bolalarga ozor bermangiz-bu gunohi azim erur. Bunday gunohni Alloh xush ko'rmagay*», degan gaplar Prezident Islom Karimovning onalar va bolalarga g'amxo'rliqi, ularga tibbiyot xizmati ko'rsatish va ijtimoiy muhofaza qilishni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan tadbirlari, xalq ta'limi va bolalar tarbiyasini isloh qilish hamda xotin-qizlar hayotini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlari sohibqiron davlat shajarasining, Amir Temur ma'naviyatining davom etayotganidan dalolat beradi.

Ulug' bobokalonimizning birgina «*Kuch-adolatda*», degan gaplari bugun O'zbekistonda yangi davlat qurilishiga asos qilib olindi. Huquqiy demokratik, adolatli davlatni barpo etish, insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillari avvalo amir temur mamlakatdorlik maktabining ilg'or jahoniy tajribalar bilan uyg'unlashgan mahsulidir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. И.Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, «Шарқ», 1998
2. И.Каримов. Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз., Ўтмишсиз келажак йўқ, ҳамкорликсиз тараққиёт бўлмайди., Амир Темур давридаги бунёдкорлик ҳам ҳамкорлик руҳи бизна намуна бўлаверсин., Халқимиз бо экан, Амир Темур номи барҳаётдир., Адолат ва қудрат тимсоли. «Амир Темур ҳақида сўз» Тошкент, «Ўзбекистон», 1996
3. И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида Т., 1997
4. Темур тузуклари. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996
5. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли-Таржимаи ҳол. Т., Нур, 1992
6. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т., «Чўлпон», 1994
7. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Т., «Юлдузча», 1989, 1960
8. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т., «Ўзбекистон», 1996
9. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т., «Шарқ», 1997
10. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи-Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 1-2 китоблар. Т., 1992
11. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. Т., 1969
12. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1996
13. Амир Темур жаҳон тарихида. Т., «Шарқ», 1996
14. Ашраф Аҳмад. Улуғбек Муҳаммад Тарағай (1394-1449) Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994
15. Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. Мақолалар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996
16. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. Т., А.Қодирий ном. Халқ мероси нашр., 1996
17. Аҳмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пуганчекова Г.А. Амир Темур. Жизнь и общественно-историческая деятельность. Т., «Шарқ», 1997

18. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. Т., 2000
19. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Соҳибқирон Амир Темур ва унинг салтанати. «Андижон», 1995
20. Шамсутдинов Р. ва б. Буюк Бобурийлар салтанати. Андижон, «Мерос», 1995
21. O`zbekiston tarixi: o`quv qo`llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma`sul muharrir S. Inoyatov. – T.: “Sharq”, 2013.
22. Кэрэн Л. Амир Темур салтанати. Т., «Маънавият», 1999
23. Хильда Хукхэм. Етти иқлим султони. Хужжатли тарихий қисса. Т., «Адолат», 1999
24. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандаги амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). «Санъат» № 9-10. 1989, № 1-10. 1990
25. Муҳаммаджонов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. Т., Қомуслар бош таҳририяти, 1997; Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. Т., «Шарқ», 1997
26. Файзиев Т. Мирзо Улуғбек авлодлари. Т., «Ёзувчи», 1994
27. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т. «Шарқ», 2000 ва б.
28. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т., «Фан», 1993
29. Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Т., «Ёзувчи», 1996
30. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзусидаги халқаро конференция тезислари. 1996 йил 23-26 октябр, Т., «Ўзбекистон», 1996